

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

TARIX KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**MAVZU: "Mustaqillik yillarda Buxoroda turizmning
rivojlanishi"**

5220200-«Tarix» ta'lif yo'nalishi bakalavr darajasini olish uchun

**Tarix ta'lif yo'nalishi
bitiruvchisi: Sabirov
Azizbek**

**Ilmiy rahbar katta
o'qituvchi Boltayev B.B.**



Buxoro-2014

uxoro Davlat Universiteti Tarix Fakulteti “Tarix” ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi Sabirov Azizbekning “Mustaqillik yillarda Buxoroda turizmning rivojlanishi” nomli bitiruv malakaviy ishiga

Taqriz

Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ommaviy tus gan. Odatda, turizm turistik tashkilotlar orqali turistik marshrutlar bo‘yicha ushtiriladi. Turizmning juda ko‘p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, vaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim viyasini kengaytirish maqsadida turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, yoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar). Bitiruvchi Sabirov zizbekning “Mustaqillik yillarda Buxoroda turizmning rivojlanishi” mavzusi amlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida iqtisodiyotni erkinlashtirish, amlakatni modernizatsiyalash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash evaziga luksiz iqtisodiy o’sishga erishishdek dolzarb vazifa qo‘yilgan. Bu o‘znavbatida, tosodiyotda erishilgan yutuqlarning asosi sifatida bozor munosabatlарining qaror pishi, mulk shakllarining takomillashuvi, iqtisodiyotdagi keskin tuzilmaviy zgarishlarning sodir bo‘lishi, servis va xizmat ko‘rsatish sohalarini yalpi ichki ahsulotdagi ulushining ortib borishi kabilar bilan baholanmoqda.

Shundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash rayonida xizmat ko‘rsatish korxonalarini doimiy ravishda o‘zgarib boruvchi bozor munosabatlari sharoitida barqaror iqtisodiy rivojlanishi, ularning xo‘jalik oliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini komillashtirish talab etilmoqda. Bitiruvchi Sabirov Azizbek “Mustaqillik yillarda turizmni rivojlantirish” mavzusida quyidagicha vazifalarni belgilab olgan:

- O‘zbekistonda mustaqillik yillarda turizmni rivojlantirish bosqichlarini rghanish, ayni paytdagi holatiga izoh berish va sohaning zaif tomonlarini yosiytahlil qilish;
- Buxoroviloyatida turizm samaradorligini oshirishda asosiy yo’nalishlariniochib berish;

- turizm tarixi va uning rivojlanish istiqbollarini belgilab beradigan imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun takliflar ishlab chiqish;
- ekologik vaziyatni inobatga olgan holda Buxoroda tabiiy zonalariniko`paytirish va suv havzalarini shakllantirish, ulardan unumli foydalanish;
- Buxoroda turizmnri rivojlantirish va taraqqiy qilish imkoniyatlaridan unumli foydalanish uchun kerakli hujjatlarni klassifikatsiya qilish.

Bitiruv malakaviy ishkirim, 4 band, xulosa, adabiyotlar ro`yxati va mavzuga doir ilovadan iborat. Bitiruv malakviy ish yakuniga yetgan, adabiyotlar ro`yxati mavzuga to`la mos keladi.

Shuningdek bitiruv malakviy ish ba`zi bir juz'iy kamchiliklardan ham xoli emas.

1. BMida g`aliz va takroriy jumlalar uchrab turadi.
2. Iqtiboslarni keltirishda bir xillilik tartibga amal qilinmagan.
3. 4-band qolgan bandlarga nisbatan sal kamroq yoritilgan.

Ushbu juz'iy kamchiliklar Azizbek Sabirovning "Mustaqillik yillarida Buxoroda turizmnning rivojlanishi" mavzusidagi bitiruv malakviy ishining mazmuniga salbiy ta'sir ko`rsatmaydi, ishni ijobjiy bahoga loyiq deb hisoblayman.



Taqrizchi:

Tarix kafedrasi katta
o`qituvchisi Qudratov Sh.Y.

O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta

maxsus ta`lim vazirligi

Buxoro Davlat universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O`zbekiston tarixi kafedrasи

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Mavzu: «Mustaqillik yillarida Buxoroda turizmni rivojlanishi»

5220200 – Tarix ta`lim yo`nalishi bakalavr

darajasini olish uchun

Tarix ta`lim yo`nalishi

bitiruvchisi: A. Sabirov

Ilmiy rahbar:

Katta o`qituvchi B. Boltayev

Buxoro – 2014

Reja:

Kirish:

1. Turizmning vujudga kelishi va tarixi
2. Turizm dunyo xalqlarini bir-biriga bog‘lovchi muhim vosita
3. Qadimgi Xorazm, Qashqadaryo va Zarafshon (Buxoro, Samarqand) vohalari sayyohlik sohasini rivojlantirish imkoniyatlari.
4. Buxoro Turizm istiqbollari: Turizm sohasida yetuk kadrlar tayyorlash – taraqqiyot omili

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Ilova

Mundarija

Mundarija

Kirish	2 – 8
1. Turizmning vujudga kelishi va tarixi	9 – 17
2. Turizm dunyo xalqlarini bir-biriga bog‘lovchi muhim vosita	18 – 28
3. Qadimgi Xorazm, Qashqadaryo va Zarafshon (Buxoro, Samarqand) vohalari sayyohlik sohasini rivojlantirish imkoniyatlari.....	29 – 43
4. Buxoro Turizm istiqbollari: Turizm sohasida yetuk kadrlar tayyorlash – taraqqiyot omili.....	44 – 48
Xulosa	49 – 55
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	56 – 59
5. Ilova	

Kirish

Mavzuning dolzarbliji. Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatta, turizm turistik tashkilotlar orqali turistik marshrutlar bo‘yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko‘p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadida turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar).

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida iqtisdiyotni erkinlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash evaziga uzlucksiz iqtisodiy o‘sishga erishishdek dolzarb vazifa qo‘yilgan. Bu o‘z navbatida, iqtosodiyotda erishilgan yutuqlarning asosi sifatida bozor munosabatlarining qaror topishi, mulk shakllarining takomillashuvi, iqtisodiyotdagi keskin tuilmaviy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishi, servis va xizmat ko‘rsatish sohalarini yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortib brishi kabilar bilan baholanmoqda. Shu tufayli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov “aholiga xizmat ko‘rsatish sohasini yanada kengaytirish g‘oyat muhim ahamiyatga ega...Ayni paytda bu xizmatlari o‘zimizda ishab chiqarilgan mahsulotlarining ko‘plab turlariga ichki talabni oshiradi, shuningdek, iste’mol bozorida mutanosiblikni saqlash muhim rol o‘ynaydi.”¹, deb ta’kidlagani bejiz emas.

Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi iqtisodiyotdaga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligiga qaramasdan O‘zbekistonda, 2009-yilda yalpi ichki mahsulot 8,1 foziga, sanoat mahsuloti hajmi 9 foizga jumladan, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish 13,9 foziga, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish hajmi 12,9 foizga, jumladan, savdoda tovar aylanmasi 16,6 foizga o‘sdi².

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2010-yil 29-yanvar.

² Социально-экономическое развитие Республики Узбекистан по итогам 2009 года. Статистические сборник. Ташкент, ГосКомСтат. 2010. -3c

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchiligi palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo‘shma majlisida qilgan ma’ruzasida Prezidentimiz bu masalaga alohida urg‘u berdilar: «... bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish - ... xizmat ko‘rsatish sektorini, infratuzilma ob’yektyarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihibalarini amalga oshirilishiga alohida e’tibor berishdir»³.

Shundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonida xizmat ko‘rsatish korxonalarini doimiy – ravishda o‘zgarib boruvchi bozor munosabatlari sharoitida barqaror iqtisodiy rivojlanishi, ularning xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomilashtirish talab etilmoqda.

Chunki xizmat ko‘rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mezanzimi bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat ko‘rsatish intensivligini ta’minalash, resurslardan foydalanishda tejamkorlikka erishish, xodimlar mehnatidan foydalanish samaradorligini va xizmat ko‘rsatish sifati hamda uning natijadorligini oshirish, iste’molchilar talabini to‘laroq qondirish masalalari sohaning o‘ziga xos muammolaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy korxonalarining xalqaro bozordagi xizmatlari darajasi va sifatini oshirish, ushbu asosida xizmatlar eksportini ko‘paytirish bugungi kunning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, Prezidentimiz I. A. Karimov 2011 yil 22-yanvarda Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasida “O‘tgan yili xizmat ko‘rsatish va servis sohasida 13,4 foiz o‘sishga erishildi, so‘nggi o‘n yilda esa ahliga ko‘rsatilgan pullik xizmatlar hajmi aholi jon boshiga hisoblaganda, qariyb 20 barobar oshdi”⁴ deb ta’kidladi. Darhaqiqat, hozirgi kunda xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining muhim

³ I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. – T.: «O‘zbekiston», 2010. – B.53.

⁴ I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz tarqqiyotini yuksaltirish, xaqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident I.Karimovning 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2011 yil 21 yanvar, B.2.

tarkibiy qismi bo‘lgan turizm sohasini jadal sur’atlarda rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda turizm samaradorligini oshirish va turizm bozorini rivojlantirishga qaratilgan bir qator me’yoriy hujjatlar, jumladan, “2005-yilgacha O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi” va “Turizm to‘g‘risida”gi qonun (1999-yil 20-avgust) qabul qilindi. 2006-yil 17-aprelda “O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident qarori qabul qilindi

Insonlar hayot darajasi va sifatini yaxshilashda xizmat sohasini o‘rni beqiyosdir. Shu bois ham dunyo mamlakatlari miqyosida ushbu soha mutassil rivojlanib bormoqda. Xizmat sohasini rovijlantirishga mamlakatimizda ham katta ahamiyat berilmoqda. Chunonchi, 2010-yilga borib uning mamlakat YAIMdagi ulushi 49,0%ga yetishi ko‘zda tutilgan⁵.

Respublikamizda xizmat ko‘rsatish sohasi bozor munosabatlarining shakllanishi va chuqurlashib borishi bilan yanada rivojlantirish, unda raqobat muhitni vujudga keltirish, hozirgi murakkab sharoitda kun tartibiga turli yangi va o‘ta muhim masalalarni qo‘ymoqda. Bular safida turizm sohasidagi mehmonxonalar servisining sifati va samaradorligini oshirish masalasi o‘ta muhim o‘rin tutadi.

Prezidentimiz “Tarkibiy yangilanishdagi alohida e’tiborni talab etadigan muhim masala, bu – xizmatlar sohasinig jadal rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish bo‘yicha 2010 – 2016-yillarga mo‘ljallangan dastur loyihasini tasdiqlash uchun kiritish, bunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida bu sohaning ulushi 54-56 foizga yetkazilishini nazarda tutish darkor”⁶ deb ta’kidladilar. Darhaqiqat jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta’sirini O‘zbekiston sharoitida bartaraf etish va iqtisodiyotni

⁵ I.A.Karimov Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish . T.: “O‘zbekiston”, 2010. B.63.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2012 yil 20 yanvar, B.2.

diverfikatsiyalash, tarkibiy yangilanishlar jarayonida xizmat ko'rsatish korxonalarining samarali faoliyat yuritish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish lozim bo'lmoqda. Shuningdek, iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida hududlar darakasida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy jihatdan ilmiy ishlarning kamligi va yetarlicha o'rnatilmaganligi mazkur mavzuning alohida dolzarbligini bildiradi.

Shuningdek, Prezidentimiz I. A. Karimov 2011-yil 22-yanvarda Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rzasida "O'tgan yili xizmat ko'rsatish va servis sohasida 13,4 foiz o'sishga erishildi, so 'nggi o'n yilda esa aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi aholi jon boshiga hisoblaganda, qariyb 20 barobar oshdi"⁷ deb ta'kidladi. Darhaqiqat, hozirgi kunda xizmat ko'rsatish tarmog 'ining muhim tarkibiy qismi bo'lgan turizm sohasini jadal sur'atlarda rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizning Quyi Amudaryo mintaqasidagi Xorazm viloyatida mavjud ekologik vaziyatni inobatga olgan holda, turizm samaradorligini oshirish yo`nalishlari va rivojlantirish istiqbollari yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiya va takliflar ishlab chiqish respublikamiz turizm sohasi oldida turgan eng muhim muammolardan biridir. Ushbu muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy echimlarini topish, o`z navbatida, tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'r ganilganlik darjasи. Turizm sohasining nazariy masalalariga XX asrning oxirlari va XXI asr boshlarida katta ahamiyat berila boshlandi. Uning barqaror rivojlanishi, samaradorligini oshirish yo`nalishlari ko`pgina olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'r ganildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan B.G.Федцов⁸, B.B.Храбовченко⁹ kabilar shug`ullansa,

⁷I.A.Karimov Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistoni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rzasasi // "Xalq so`zi" gazetasi. 2012 yil 21 yanvar, B.2.

⁸ Федцов В.Г. Культура гостинично-туристического сервиса : учебное пособие. – Ростов н/Д : Феникс, 2008. – 503 с.

⁹ Храбовченко В.В. Экологический туризм: Учеб.-метод.пособие. М.: Финансы и Статистика, 2004.- 208 с.

mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan М.Қ.Пардаев, Р.Атабаев¹⁰, Н.Тухлиев, Т.Абдуллаева¹¹, А.А.Эштаев¹² lar ekologik vaziyatni inobatga olib turizmni rivojlantirish masalalari tomonini o‘rgangan bo‘lsalar, Е.Л.Шикова¹³, Р.А.Винокуров¹⁴, Д.Джоббер¹⁵, Г.А.Аванесова¹⁶, В.К.Романович¹⁷, Ж.А.Романов¹⁸, В.Л.Иноземцев¹⁹, В.Г.Федцов²⁰, М.Д.Маркова²¹ kabi xorijiy va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi mamlakatlari olimlari Xizmat ko`rsatish sohasi iqtisodiyoti shakllanishining asosiy tendentsiyalari, nazariy-metodologik tadqiqotiga munosib hissa qo`shib qator ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O`zbekistonlik olimlaridan К.Х.Абдурахмонов²² А.Ўлмасов²³, А.Вахобов²⁴, М.Қ.Пардаев²⁵, kabilarning ilmiy ishlarida ham xizmat ko`rsatish sohasi rivojlanishi va samaradorligini oshirishning ayrim jihatlari atroflicha yoriltilgan.

Buxoroda turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini tadqiq qilishni bitiruv malakaviy ishda asosiy maqsad qilib olindi. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib men o‘z oldimga quyidagicha vazifalarni belgilab oldim:

– О`zbekistonda mustaqillik yillarida turizmni rivojlantirish bosqichlarini o`rganish, ayni paytdagi holatiga izoh berish va sohaning zaif tomonlarini qiyosiy tahlil qilish;

¹⁰ Пардаев М.Қ. Атабаев Р. Туризм асослари. Самарқанд, СамИСИ. 2006 – 74 б., Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев М.Қ. Туризмни ривожлантириш имкониятлари.Т.: “Фан ва технология”. 2007. - 32 бет, Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Т.: “Иқтисод ва молия”. 2008.- 259 б.

¹¹ Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. –Т.: Гос. Науч. Изд-во “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 386 с., Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущност, тенденции и стратегия развития. –Т.: Гос. Науч. Изд-во “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 416 с., Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. –Т.: Гос. Науч. Изд-во “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 386 с.

¹² Эштаев А.А., Норчаев А.Н., Рўзиев С.С. Ўзбекистон Республикасида туризм хизмати ва сервис соҳасини ривожлантириш йўллари. Т.: ТДИУ, 2007. – 38 б.

¹³ Шикова Е.Л. Экономика и менеджмент не коммерческих организаций: учебник СПБ: Лань, 2004. – С. 134
¹⁴ Винокуров Р.А. Экономика труда. – СПВ.: Питер, 2004. – С. 64-65.

¹⁵ Джоббер Д. Принципы и практика маркетинга: Пер. анг-М: издательский дом “Вильяне” 2000.- С.22.

¹⁶ Аванесова Г.А. Сервисная деятельность: историческая и современная практика, предпринимательство менеджмент (учеб – пособие). М – Аспект – Пресс. 2005.- С. 63

¹⁷ Романович В.К. и др. Сервисная деятельность: учеб пос-Зе изд. – СПБ. - Б.10-15

¹⁸ Романов Ж.А. Сервисная деятельность М: Дашков К. 2006. – С. 9

¹⁹ Иноземцев В. Парадоксы постиндустриальной экономики // МЭ и МО. 2005, №3 - С. 3-4

²⁰ Федцов В.Г. Культура гостинично-туристского сервиса : учебное пособие. Ростов. : Феникс, 2008.- С.503

²¹ Маркова М.Д. Маркетинг услуг. М. Финансы и статистика. 1996. - С.8

²² К. Х. Абдурахмонов “Мехнат иқтисодиёти” дарслер Т:”Мехнат” 2004. - Б.273-274

²³ Ўлмасов А., Вахобов А. В. Иқтисодиёт назарияси: дарслер. Тошкент, “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2006. – Б.480

²⁴ Вахобов А. Бозор муносабатлари тизимидаи ижтимоий фондлар: иқтисод фанлари доктори диссертацияси. Тошкент 2000 й. - Б.166

²⁵ Пардаев М.Қ., Исройлов Ж.И., Гаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилини такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. “Зарафшон”, 2009. – Б.66

- Buxoro viloyatida turizm samaradorligini oshirishda asosiy yo`nalishlarini ochib berish;
- turizm tarixi va uning rivojlanish istiqbollarini belgilab beradigan imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun takliflar shlab chiqish
 - ekologik vaziyatni inobatga olgan holda Buxoroda tabiiy zonalarini ko`paytirish va suv havzalarini shakllantirish, ulardan unumli foydalanish.
- Buxoroda turizmni rivojlantirish va taraqqiy qilish imkoniyatlaridan unumli foydalanish uchun kerakli hujatlarni klassifikatsiya qilish.

1.Turizmning vujudga kelishi va tarixi

Turizm (fransuzcha tour-sayr,sayohat), sayyohlik - sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning istiqomat joyidan sog`lomlashtirish, ma`rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to`lanadigan faoliyat bilan shug`ullanmagan holda uzog`i bilan 1 yil muddatga jo`nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi²⁶.

Tarixiy turizm – bu qadimiy odamlardan bizgacha yetib kelgan mehnat qurollari, idish-tovoqlari, tanga pullar, harbiy qurol-yaroqlar, uy-joylar, qal`alar, shaharlar, qabrular, rasmlar, madrasalar, masjidlar va moddiy tarixiy manbalar bilan qiziquvchi turistlarning faoliyati tushuniladi²⁷.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashqi iqtisodiy faoliyatimizni tubdan isloh qilish masalasiga e`tibor qaratib: “Eksport masalasida chuqur o`zgartirishlarni amalga oshirish lozim. Xomashyoni eksport qilishdan ko`ra, O`zbekiston uchun ko`proq naf keltiradigan yo`nalishlarga o`tish zarur. Bular jumlasiga ... xalqaro turizmni rivojlantirish kiradi”²⁸, deb ta`kidlagan edi.

Turizm (sayohat) piyoda va ulovlarda yurish, tarixiy va boshqa diqqatga sazovor joylarda sayr-tomosha qilish, kuzatish xushmanzarali va oromgoohlarda dam olish , sof havo, quyosh nurlari va zilol suvlarda chiniqish demakdir. Tabiiyki, kechadigan bunday ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy jarayonlarda atrof-muhitni o`rganish, ma`lum maqsadlar yo`lida qo`yilgan vazifalarni bajarish, turli toifadagi kishilar bilan muloqotda bo`lishga to`g`ri keladi. SHu sababdan ham qadimgi ajdodlarimiz ov qilish hamda turli xil mashg`ulotlarni bajarib borishi barobarida eng muhimi, jismoniy sifatlarni (chaqqonlik, tezlik, epchillik, chidamlilik va h.k.) ham takomillashtirib borganlar. Bu haqda halq og`zaki ijodida ta`rif etilgan turli xil rivoyatlar, afsonalar va hikoyalardagi dalillar, mushohadalar ham guvohlik beradi.

²⁶ O`zbek tilining izohli lug`ati. J. 2 E-M – B.328.

²⁷ Ahmedov E. O`zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda.- Toshkent, 2002.

²⁸ Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo`nalishlari. -T.: O`zbekiston, 1993, B.15.

Jahon mamlakatlari qatorida O`zbekiston ham o`zining uzoq va betakror boy tarixiga ega. Qadim zamondaryoq Turon zamin deb e`tirof etilgan ona Vatanimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko`ra Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiylar va buyuk mamlakatlar qatorida munosib o`rinni egallagan.

Ko`xna, madaniy va ma`naviy yodgorliklarga boy tarixi, qadimiylar me`moriy hamda tasviriy san`ati jahon turistlarini o`ziga jalgan etib kelgani hech kimga sir emas. Toshkent, Samarqand, Buhoro, Shahrisabz, Xiva va Urgench hamda respublikaning turli joylarida joylashgan tarixiy obidalar, ko`hna yodgorliklar mamlakatimiz turizmining asosiy poydevori vazifasini o`taydi²⁹.

Chotqol, Nurota, Sariosiyo va Turkiston tizma tog`lari orasida yassi va silliq toshlarga o`yib chizilgan suratlar (shakllar) orasida ov jarayoni, turli xil yovvoyi hayvonlarni nayza bilan sanchish, yoy o`qi bilan otish, odamlarni yugurishi, hayvonlar bilan olishuvi, nayza, kamon va boshqa qurollarni ishlatish yo`llari aynan yorqin ifodalangan.

Surxon vohasidagi Dalvarzintepa, Samarqanddagi Afrosiyob va boshqa hududlarda olib borilgan arxeologik qazashmalarning topilma ashyolarida sayohat qilish, shaharlarda savdo uyushtirish, manzarali joylarda hordiq chiqarish, tuya, ot, xachirlarga yuk ortib, ularni piyoda etaklab borish, goho ularni minib yurish kabi amaliy harakatlar tasvirlangan. Bunday tasviriy dalillar O`zbekiston tarixi Davlat muzeyi, San`at muzeyi, Afrosiyob muzeyi va viloyatlardagi boshqa tarix muzeylarida ehtiyyot bilan saqlanib va namoyish qilib kelinmoqda.

Buyuk ipak yo`li nomi bilan tarixga kirgan, qadimgi karvon yo`llarining yurtimiz sarhadlaridan eramizdan oldingi II asrda o`tganligi ham din, hunarmandchilik, madaniyat, o`ziga xos an`analar va urf-odatlarning o`zaro uyg`unlashuvi hamda rivojlanishiga xizmat qilganini alohida ta`kidlash joiz.

²⁹ Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev L., Istoriko-demograficheskiye ocherki urbanizatsiya Uzbekistana. -T.: Universitet, 2002.

Birgina tarixiy-me`moriy obidalarimiz soni 900 dan ortiq. e`tiborli jihatni shundaki, viloyatdagi madaniy meros ob`ektlarining ma`lum qismi YUNESKO tomonidan himoyaga olingan³⁰.

Yuqorida zikr etilgan manbalarni o`rganish asosida qadimgi ajdodlarning ijtimoiy-madaniy hayotidagi sayohatlar haqida ba`zi bir mulohazalar yuritish mumkin. Sirdaryo, Zarafshon, Amudaryo va boshqa kichik daryolarning boshlanishi, o`rta qismi va ularning so`nggi irmoqlari atrofida o`tmish ajdodlarimiz hayot kechirganlar. Ular chorva bilan shug`ullanib, yilning fasllariga qarab doimo yaylovlarda ko`chib yurishgan. Bunda oila a`zolarining ham bevosita birgalikda yurishiga to`g`ri kelgan. Bu esa kishilar asosan sohillar, yaylovlar, tog`li joylarda piyoda, ulovlarda (ot, xachir, ho`kiz, eshak va h.k.) yurishini taqozo etgan. Kattayu kichiklarni bunday sharoitlarda jismoniy jihatdan chiniqishiga to`g`ri kelgan. Tog`ma-tog`, yaylovma-yaylov ko`chib yurish, qishki paytlarda o`zlarining o`troqli manzillarida yashash sharoitlarida bo`ri, tulki, kiyik, arxar (yovvoyi qo`y), kaklik, tustovuq, bedana ovlash bilan shug`ullanib, epchillik, chaqqonlika ega bo`lishgan. Tabiiyki bunday ovlarda asosan o`rta yoshdagilar, yigitlar, o`smirlar va hatto yosh bolalar ham ishtirok etishgan.

Tarixiy ma`lumotlarga qaraganda baland tepaliklar ustiga, goho tekis yaylovlarda ham toshlarni yig`ib mo`la (belgi) yasashgan. Mo`lani yasashdan asosiylar maqsad, ov joylarini belgilab qo`yishdir. SHuningdek, kim birinchi bo`lib toqqa chiqsa - qadam tegmagan joylarga ilk bor etib borishsa, esdalik uchun mo`la yasashgan. Hatto mo`lalarga uni yasovchi yoki ulug` kishilarning nomini berishgan. ehtimol “Xontangri” (Xitoy), “Kazbek”, “Elburs” (Kavkaz) kabi cho`qqilar ham shu tariqa atalgan.

Yurtimizda “Nurota”, “Turkiston”, “Olmaliq” kabi tog`lar ham balkim qadimda shu odatlar bo`yicha nomlangan ehtimol.

³⁰ O`zbek turizm Milliy kompaniyasining Buxoro mintaqaviy boshqarmasning rasmiy axboroti, 2014 yil yanvar.

Buyuk bobokalonimiz, she`riyat mulki sultonи hazrat Alisher Navoiyning asarida³¹ ham sayohatlarga aloqador masalalar o`z ifodasini topganligining guvohi bo`lamiz. Dostonda “Dengiz safari, bo`ron va ayriliq” qismida Farhodning suvda suzishi, halokatga uchragan kemadagi kishilarni qutqarish kabi jasoratlari bilan bir qatorda YAman o`lkasidan Armanlar yurtiga (SHopur orqali) kelib qolishi, tog`larda sayr qilishi, SHirinning visolini ko`rish maqsadida harsang toshlarni o`yib ariq qazishi va boshqa juda ko`p sarguzashtlar o`z aksini topgan. Farhodning CHin (Xitoy) mamlakatidan Armanlar yurtiga sayohat qilib kelishi timsolida qadimgi ajdodlarimizning sayyohlik faoliyatlaridan darak beradi.

Diqqatga sazovor tomonlardan yana biri shundaki, jahonga mashhur bo`lgan yurtdoshlarimiz Abu Nasr Farobi, Al Xorazmiy, Ibn Sino, Mahmud Pahlavon, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur va boshqa buyuk allomalarining asarlari, ilmiy meroslarida qadimgi ajdodlari-mizning ijtimoiy-madaniy hayotida sayohatlarning tutgan o`rnı haqida ham to`xtab o`tilgan. Navoiy, Bobur va boshqalarning asarlariga bitilgan suratlarda ovchilik, bog` va daryo, ko`l sohillarida hordiq chiqazish manzaralari tasviri berilgan. Sayohatlarning kishilar salomatligini yaxshilash, umrni uzaytirish, jismoniy va ijodiy mehnat qobiliyatini oshirishdagi o`rnı tarannum etilgan. Mahmud Qoshg`ariy o`zining “Devonu lug`atit turk” kitobini yozish uchun Turkiston o`lkasini piyoda va ulovlarda kezib chiqqan. Uning sayyohlik faoliyatiga doir ilmiy-qidiruv ishlari nafaqat o`z davrida balki keyingi ming yillik davomida Turon o`lkasidaida qadrlanib keldi. Uning bu asari asosida ko`plab ilmiy tadqiqotlar bajarilgan. Ayniqsa talaba-yoshlar M.Qoshg`ariyning hayoti haqida hamda uning asarini yaxshi o`rgansalar foydadan xoli emas.

Turizm – sayohat ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarga ega bo`lgan nazariy va amaliy fan sifatida o`qitiladi. Uning ijtimoiy tuzumlar (forma) bilan bog`liq bo`lgan o`z tarixi hamda rivojlanish jarayonlari bor³².

³¹ Alisher Navoiy - “Farhod va Shirin” dostoni, XXVIII bob.

³² Tojiyeva M. “Iqtisodiy turizm” Ma’ruzalar matni, Uslubiy qo’llanma. T.:2010-yil B.283.

Turizm umumiy ma`noda sayr-sayohatlar, sarguzashtlarni ifoda etadi. SHu sababdan ijtimoiy-turmush va mehnat jarayonlarida tarkib topadi.

Eng qadimgi odamlar yashash uchun ov va mehnat quollarini yaratishga harakat qilishgan. SHu tarzda tog`lar, yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar, ularni qo`lga o`rgatib mehnat bilan shug`ullanishgan. Ov manzillari va dam olishga qulay bo`lgan joylarda ma`lum bir belgilarni (tur) qo`yishgan. Zarur paytlarda ana shu joylarga kelib hordiq chiqarishgan, turli o`yinlar tashkil qilib musobaqalashishgan.

Ishlab chiqarish-mehnat jarayonining takomillashuvi, ov va jang quollarini yaratishning yangi usullari odamlarning uzoq joylarga borib ov va mehnat qilishiga, shu asosda eng qulay va yaxshi joylarni tanlab, dam olishi, hatto o`troqlashib qolishiga olib kelgan. SHu tariqa daryolar, ko`llar, dengizlarda ov qilish, sayr o`tkazish uchun kemalar yasab, ulardan maqsadli foydalanganlar. Bu sohada Xristofor Kolumbning Amerika qit`asiga borib qolishi (kashfiyoti), turli sayohatchilarning Hindiston, Afrika, Avstraliya va boshqa qit`alar, mamlakatlarga borganligi tarixdan ma`lum.

Qadimgi O`zbekiston zaminining so`lim tabiatini, ko`hna shaharlaridagi osori-atiqalar, dunyo tamadduni (sivilizatsiyasi)ga katta hissa qo`shgan allomalarni voyaga etkazgan maskanlar jahon ahlini, sayyoohlarini o`ziga chorlab kelgan. Aleksandr Makduniy (mil.avv. IV asr) bilan kelgan yunon ma`rifatparvarlari o`lkaning tabiatini va hayotiga oid qiziqarli esdaliklar yozishgan. Xitoylik sayyooh CHjan Szyan' (mil.avv.II asr) Farg`ona vodiysidan Qizilqum cho`llarigacha bo`lgan xududlarni kezgan. SHuningdek, Xitoylik Syuan' TSzan (VII asr), italiyalik Marko Polo (XIII asr), arabistonlik YOqut Hamaviy (XIII asr), marokashlik Abu Abdulloh ibn Battuta (XIV-asr), ispaniyalik Rui Gonsales de Klavixo (XIV asr), garmaniyalik Iogann fon SHilt'berger (XIV-XV asrlar), Buyuk Britaniyalik entoni Jenkinson (XVI asr), vengriyalik Arminiy Vamperi (XIX asr) kabi dunyo kezgan sayyoohlar qo`hna yurtimizda bo`lishgan va ko`rgan-kechirganlari to`g`risida xotiralar yozib qoldirishgan.

SHuningdek, Turon zaminining mashhur kishilari ham dunyo kezib, safar taassurotlari asosida qimmatli asarlar yozishgan. Abu Rayhon Beruniyning hind eliga safaridan keyin yaratilgan “Hindiston” (1030 yil), Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” (1518/19-1530 yil) ,Abdurauf Fitratning Turkiyaga sayohati xotiralarini o`z ichiga olgan “Sayyohi hindi” (1912yil) kabi asarlar shular jumlasidandir. Umuman sharq badiiy adabiyotiga mansub sayohatnoma janrida ham qadim yurt hayotiga bag`ishlangan asarlar bor (Muqimiyy, Nodim va boshqalar).

Mavoraunnahrda ilk sayyoohlarning safarlari Amir Temur va temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur Frantsuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo`lgan. Uning elchisi 1403 yil Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning “Buyuk Temurning hayoti va faoliyati” kitobida Mavoraunnahrdagi ijtimoiy hayot va sayyoohlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan.

Turizmning tarixiga nazar tashlanadigan bo`lsa, uning asosida mehmondo`stlik yotadi. Bu insoniyatning azaliy odati bo`lib kelgan. Oldin mehmonlarni o`z uyida, xonadaonida kutib olgan bo`lsa, hozir uning mazmuni o`zgardi. Odatda odamlar bir necha kun, xafka, oy mobaynida uyidan uzoqda yashashiga to`g`ri keladi. Unga «begona» kishilarning qo`llab-quvvatlashi va yordami kerak bo`ladi. Bu esa mehmondo`stlik orqali amalga oshiriladi.

O`zbek tilining izohli lug`atiga muvofiq mehmondo`stlik «mehmon-do`stga xos xislat, xatti-harakat, mehmon kutishni o`rniga qo`yish» demakdir³³. Hozirgi kunda mehmondo`stlik bilan qilingan tashriflar ham kimningdir xonadonlarida emas, balki mehmonxonlarda tunash va dam olish bilan bog`liq ravishda amalga oshirilmoqda. SHu tufayli mehmondo`stlik va turizm atamalarini iqtisodiy adabiyotlarda³⁴ bir-biri bilan bog`liq holda qo`llamoqdalar. Mamlakatimiz olimlari

³³ O`zbek tilining izohli lug`ati. J. 2 E-M – B.586.

³⁴ Папирян Г.А. Менеджмент в индустрии гостепримства (отели и рестораны). М.: ОАО НПО: Изд-во “Экономика”, 2000., Уокер Дж. Введение в гостепримство: Учебник / пер. с англ. М.: ЮНИТИ, 1999., Основы управления предприятиями и организациями индустрии гостепримства / Под ред. А.Браймера. – М., 1994. ва бошқалар.

mehmono`stlik o`rniga “mehmon-navozlik” iborasini ham ishlatmoqda³⁵. Bulardan ham ko`rinib turibdiki, mehmono`stlik tushunchasining tabiatini ochib berish turizmning nazariy masalalarini qarashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun har bir tushunchaning ta`rifini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Mehmono`stlik hozirgi paytda turizmda ko`rsatiladigan xizmatlarning turi bo`lib, ma`lum darajada tadbirkorlik alomatlariga ham ega. Uning shu mazmunidan kelib chiqib mehmono`stlikka quyidagicha ta`rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Mehmono`stlik deganda mehmonlarni joylashtirish, ovqat-lantirish, transportda tashish, ekskursiya qildirish, konferentsiya o`tkazish, ko`ngilochar kabi xizmatlarni amalga oshirish bilan bog`liq munosabatlар majmui tushuniladi.

Turizmning fan sifatidagi o‘rganish tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Frantsiyaga uyushgan sayyoqlik tashkil etilgan (1815 yil). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk³⁶ o‘zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866 yil dastlabki sayyoqlik guruhlari AQSHga jo`natildi.

SHarqda arab sayyohi *Ibn Battuta*³⁷ 21 yoshida sayohatni boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi.

Tarixiy ma`lumotlarga qaraganda XIX asrning birinchi yarmida rus sayyoohlari Markaziy Osiyoning tarixi, madaniyati, tabiiy boyligi va geografik muhitini o`rganishga ilk qadamlar qo`yishgan. Ayniqsa, bu jarayonlar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida keng avj olgan. Bunga tarix, geografiya, botanika, etnografiya, arxeologiya va boshqa ko`p sohalar bo`yicha olimlar, harbiy mutaxassislar safarbar etilgan. Ularning tashriflaridan maqsad ko`p qirrali jarayonlar bilan bog`liq bo`lib, mohiyatan istilochilik bilan bog`liq manfaatlar asosiy o`rinda turgan. SHular qatorida geografik muhit va tabiiy boyliklarni o`rganish, ularni qidirib topish ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bunday

³⁵ Mamatqulov X.M. Turizm va servisga oid izohli lug`at. Samarqand: SamISI, 2010. - 151 b.

³⁶ Tomas Kuk (ingliz ruhoniysi) 1841 yilda 600 kishidan iborat 1-temir yo`l sayyoqligini tashkil qilib, turistik sayohatga asos soldi

³⁷ Muhammad Ibn Abdulloh Muhammad at - Tanji (arab. اَبْنُ عَبْدِ اللَّهِ مُحَمَّدٌ تَانِجٌ) 25 fevral 1304, — 1377) islom dunyosidagi barcha mamlakatlarga sayohat qilgan, mashhur arab sayyohi va savdogari

murakkab va mashaqqatli tadbirlarni tashkil qilish hamda amalga oshirishda B. A. Fedchenko, P. P. Semenov, Tyan-Shan'skiy katta jasoratlar ko'rsatishgan, ya'ni ular Tyan`-Shan', Pomir-Oloy tizma tog`lari, ularning quyi tarmoqlarini xaritaga olganlar. Bular o`z navbatida o`sha davrda va keyingi vaqtarda tog`lar, daryolar, konlarni o`rganishda, shuningdek, guruh bo`lib sayohatlar tashkil qilishda ancha xizmat vazifalarini o`tagan.

O`zbekistonda mustaqillik qaror topgach turizm ishlari keng yo`lga qo`yila boshlandi. Uning huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagagi farmoni bilan turizm sohasida respublika yagona siyosatini amalga oshiruvchi davlat organi “O`zbekturizm” milliy kompaniyasi tuzildi. Uning tarkibiga tarmoqqa aloqador davlat va jamoat tashkilotlari kiritildi, hududiy bo`limlari tashkil etildi.

Jahon Turizm Tashkiloti Bosh Assambleyasiga “O`zbekturizm” milliy kompaniyasi to`la huquqli a`zo etib qabul qilindi³⁸.

O`zbekistonda turistik faoliyat bilan shug`ullanuvchi 408 ta firma va korxona bor. 14 mingdan ortiq o`ringa ega bo`lgan 168 ta mehmonxona faoliyat ko`rsatadi (2006 yil). Respublikaga 2005 yilda dunyoning 117 mamlakatidan 241,9 ming xorijlik turist sayohatga keldi. O`zbekiston fuqarolaridan 380.9 ming kishi chet elga turistik sayohatga chiqdi. SHuningdek, mamlakat ichki turizmidan 334,1 ming kishi foydalandi.

Mamlakatda “O`zbekturizm” milliy kompaniyasi muassisligida rus va ingлиз tillarida “Turizm O`zbekistana” (Tourism of Uzbekistan) jurnali nashr etiladi va kompaniya o`zining www.Uzbektourism.uz veb saytiga ega.

³⁸ Jahon Turizm Tashkiloti Bosh Assambleyasasi Bali shahrida (Indoneziya) bo`lib o`tgan majlis., 1993-yil, X sessiya.

2. Turizm dunyo xalqlarini bir-biriga bog‘lovchi muhim vosita

Sayyoramizda har yili millionlab insonlar o‘zga mamlakatlarga sayohatga otlanishadi. Turistlar xorijiy mamlakat, u yerda yashayotgn xalqlarning urfodatlari, an’analari, madaniyati va ma’rifati, tarixi va tabiatidan voqif bo‘ladi, go‘zal maskanlarida bo‘lib zavqlanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov turizm sohasini rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri ekanligini alohida ta`kidlaydilar: “Turizm sodda qilib aytganda dunyonи tushunib, dunyonи anglash,

shu bilan birga dunyo sahnasiga chiqishi demakdir... Toshkent, Samarqand, Buhoro, Marg`ilon, Shahrisabz va Xiva kabi shaharlarimizning 2500-3000 yillik tarixi bor. Bu juda katta ma`naviy boylik, uni sayyohlikni rivojlantirish yo`li bilan moddiy boylikka aylantirish mumkin”³⁹. Globallashuv jarayonida turizm yanada rivoj topib, natijada, ushbu sanoat jahon tovarlar va xizmatlar eksportida birinchi o‘ringa chiqib oldi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, turistik oqim hozirda yiliga bir milliard nafardan ziyod kishini tashkil etmoqda⁴⁰. Insoniyatning madaniy beshiklaridan hisoblangan O‘zbekiston diyori ham ushbu oqimning ajralmas bo‘lagi sanaladi. Respublikamiz hududidagi qadimgi sivilizatsiyalar, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitekturaning buyuk namunalarini o‘rganishga bugugi kunda Yaponiya, Fransiya, Germaniya va boshqa ilg‘or mamlakatlar olimlarining kirishgani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Zero, O‘zbekiston ham o‘zining jozibadorligi, noyob arxetektura obidalari, madany merosi va dam olish, sayohatlar uchun mo‘ljallangan maskanlar bilan jahondagi ilg‘or mamlakatlardan qolishmaydigan yirik turistik davlatga aylanib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov: “O‘zbekiston turizmni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga egadir. Samarqand, Buhoro, Xiva kabi o‘zbek shaharlari butun dunyoga mashhurdir. Respublika xududida to`rt mingdan ko`proq me`morchilik yodgorliklari bor... Tabiat iqlim sharoitlari qishin yozin sayoxatchilarni qabul qilish imkoniyatini beradi”–deb ta`kidlab o`tgan edilar. Bundan kelib chiqadiki, O‘zbekiston xalqaro turizmni rivojlantirish salohiyatiga va yuqori raqobatbardoshlikni ta`minlashda nisbiy ustunliklarga ega bo`lgan mamlakatlar qatoriga kiradi⁴¹.

Mustaqillik yillarda turizm sanoatini zamonaviylashtirish, mamlakatning mehmonxona va transport infratuzilmasini yaxshilash hamda tarmoqning izchil

³⁹ Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda.- Toshkent, 2002.

⁴⁰ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B.8.

⁴¹ Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev L. Istoriko-demograficheskiye ocherki urbanizatsiya Uzbekistana. -T.: Universitet, 2002.

rivojlanishi uchun sohaga oid me`yoriy-huquqiy bazani shakllantirish bo`yicha keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizga turist sifatida tashrif buyuruvchi xorijlik fuqarolar sonini sezilarli darajada oshirish uchun sohada keng ko‘lamli islohotlar, sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda, maxsus dasturlar ishlab chiqilib, hayotga keng joriy etilmoqda. Natijada, O‘zbekistonda turistik xizmatlar hajmining o‘sishi yildan-yilga ortmoqda. Masalan, 2013-yilda ushbu ko‘rsatkich 16 foizni tashkil qilib, xizmatlar eksporti 20 foizga oshdi, qariyb 600 ming nafar xorijlik turistlar respublikamizda mehmon bo‘ldi.

Hozirgi kunda viloyatda mehmonxonalar soni 66 ta va turistik firmalar soni 12 taga etib, sayohlar oqimi yil sayin ko`paymoqda. Viloyatdagি barcha mehmonxonalar bir kunda 2800 dan ortiq mehmonlarga xalqaro standartlar darajasida servis xizmati ko`rsatish imkoniyatiga ega⁴². Agar O‘zbekistonning xorijiy turistik oqimlarini dunyo miqyosidagi sayyoohlар soni bilan taqqoslasak, u bir foizni ham tashkil etmaydi. Vaholanki, Italiyaga tashrif buyurgan xalqaro turistik oqim jahon umumiylar turistik oqimining 5,9 % ini, Rossiyada - 3,3 % ini va Xitoyda - 4,5 % ini tashkil etgan. O‘zbekistonda esa 2007 yilda 300,7 ming xorijiy sayyooh tashrif buyurgan⁴³ va ularni qabul qilishdan 29,3 mln. AQSH dollari miqdorida daromad ko`rilgan⁴⁴.

Mamlakatimizda tarixiy, madaniy arxeologik, qadimiy arxitektura sohasidagi noyob obyektlar soni yetti mingdan ziyodni tashkil qiladi. O‘zbekistonning to‘rtga – Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlari YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Endilikda ushbu shaharlar ochiq osmon ostidagi muzeylar sifatida tilga olinmoqda.

Aytish joizki, O‘zbekiston hukumati tomonidan xizmatlar sohasini, shu jumladan, turizm tarmog‘ini kengaytirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, ushbu

⁴² SH.Mahmudov – O‘zbekturizm MK Buxoro bo‘linmasi boshlig‘ining ma’zuzasi., 2014-yil yanvar

⁴³ Основные показатели развития туризма и отдыха в Республике Узбекистан в 2007 году. Статистический бюллетень. Т.: Госкомстат, 2008. –с.2.

⁴⁴ Ўша жойда – б 61.

soha mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Mazkur tarmoqni mamlakatimiz iqtisodiy majmuining muhim tarkibiy qismiga aylantirish yo‘lida muayyan shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlarining tashkil etilishi, aholi farovonligining o‘sishi, valyuta va soliq tushumlarining ko‘payishi sezilarli hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida" 2006 yil 17 apreldagi qarorida belgilangan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun foyda solig‘i hamda yagona soliq to‘lovi bo‘yicha imtiyozlarning amal qilish muddati 2017 yilning 1 yanvarigacha uzaytirildi. Shu munosabat bilan yangi xizmatlar ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra ko‘rsatilgan soliq imtiyozlari ta’sir qiladi⁴⁵.

Ayni paytda O‘zbekiston turistik o`lka sifatida xalqaro turistik bozorlarda o‘zining Buxoro, Samarqand, Toshkent, Termiz, SHahrisabz, Xiva kabi qadimiy va navqiron durdona shaharlari bilan mashhur bo`lib, 2005 yilda 400 mingga yaqin sayyohma xizmat ko`rsatgan va 2010 yilga borib ushbu ko`rsatkichni 1 mln.ga etkazish kutilmoqda. Jahon turistik tashkilotining ma`lumotlariga ko`ra, bugun dunyoda bir yilda 700 mln. kishi turli maqsadlarda sayohat qilib turizmga 600 mlrd. dollardan ko`proq mablag` xarajat qilar ekan⁴⁶.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida turizm sohasini jadal sur`atlarda rivojlantirish zarurati tabora ortib bormoqda. "Xizmatlar sohasining rivojlanishi, ko`rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati bo‘yicha biz iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan hamon jiddiy orqada qolmoqdamiz". - deb ta`kidlagan edi Prezidentimiz Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasida⁴⁷.

⁴⁵ www.UzReport.uz

⁴⁶ Ibragimov Nutfillo Salimovich, O‘zbekistonda Xalqaro turizmni rivojlantirishda distinatsion menejment konsepsiyasini qo‘llash mavzusidagi iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi avtoreferati – Т. – В.12. 30-bet.

⁴⁷ Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараккиётини янги боскичга кўтаратдиган йил бўлади // "Халқ сўзи", 2012 йил, 20 январь.

Xorijlik mehmonlarni respublikamizga ko‘proq jalg qilishning muhim sharoitlaridan biri, bu turizm infratuzilmasini jahon andazalari talablariga mos tarzda rivojlantirishdir. Bu borada mamlakatimizda so‘nggi yillarda samarali ishlar amalga oshirilayotganini aytib o‘tish joiz. Xususan, ko‘plab tarixiy va arxitektura yodgorliklari restavratsiya va konservatsiya qilinmoqda, ko‘plab yangi mehmonxona va yo‘llar qurilmoqda, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyoohlarga sifatli servis va transport xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Ushbu xizmatlar bozorida 500 tadan ortiq mehmonxona, turistik baza va kemping, 300 tadan ortiq kompaniya ishlab turibdi va ularning soni muntazam ko‘paymoqda⁴⁸. Turistlarga bevosita ishlab chiqaruvchilarining o‘zlaridan sotib olingan Boeing va Airbus kompaniyalarining samolyotlari xizmat ko‘rsatib, jumladan, jahoning 40 dan ziyod shahriga aviaparvozlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mehmonlarga tijorat banklarining ko‘p tarmoqli tizimi keng doiradagi moliyaviy xizmatlarni taqdim etmoqda. Mamlakatimizning asosiy qismi internet tarmog‘iga ulangan uyali aloqa xizmatlari bilan qamrab olingan, bu turistlarga mamlakatimizda va jahonda yuz berayotgan voqealardan hamda yaqin kishilari holidan xabardor bo‘lib turish imkonini beradi. Mamlakatimizda mehmonlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish ishlari uzlucksiz davom ettirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi "2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g’risida" qarori doirasida yaqin besh yil mobaynida barcha xizmatlarning solishtirma og‘irligi YAIM dagi ulushini 55% ga yetkazish belgilab olindi. Yangi dastur 2016 yilgacha mamlakatimizning yalpi ichki mahsulotida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushni bosqichma – bosqich oshirilishini nazarda tutadigan 2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohasining asosiy turlarini rivojlantirishning maqsadli parametrlarini o‘z ichiga qamrab oladi⁴⁹.

2013-yilda qabul qilingan Xorazm, Surxandaryo, Toshkent va Qashqdaryo viloyatlardan turizm sohasini rivojlantirish dasturlari respublikamizda turizm

⁴⁸ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B.11.

⁴⁹ www.UzReport.uz

sohasini rivojlantirish jarayonidagi yangi bosqich bo‘ldi. Mazkur dasturlar doirasida turizm infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalarning amalga oshirilishi nazarda tutilgan bo‘lib, bu turistlarni tomosha ob’yektlariga olib boruvchi yo‘llarni ta’mirlash, turistik markazlarning muhandislik infratuzilmasini yaxshilash, mehmonlar, restoranlar, istirohat bog‘lari, bouling-klublar va ko‘ngilochar ob’yektlar qurilishi singari kompleks masalalarni qamrab olgan. Dasturlar loyihalar tashabbuskorlari uchun mo‘ljallangan katta imtiyozlar to‘plami bilan ta’minlangan⁵⁰.

Xorijiy mehmonlarning yurtimizga qiziqib, yildan-yilga ko`plab kelishlari natijasida, qadimiylar hunarmandchilik turlari, noyob unitilayozgan kasblar qaytadan tiklanmoqda. Hunarmadlarimiz qalb qo‘ri va qadoq qo‘llari bilan yaratilgan mahsulotlari butun dunyo bo`ylab xalqmizning boy tarixini ko`z-ko`z etmokda.

Buxoroni jahon turistik markazlaridan biriga aylantirishga qaratilgan sa`y-harakatlar tufayli xalqimizning buyuk tarixiy me`rosi bilan bog`liq barcha madaniy obidalarimiz hayotga qaytarildi. Hazrat Bahovuddin Naqshband, Abdulkholiq G`ijduvoniy majmualari, Masjidi Kalon va Chor Bakr komplekslari qayta tiklanib, o`nlab allomalar va avliyolarning qadamjolari asl holiga keltirildi. Bu - bunyodkorlik va yaratuvchanlik siyosatining ko`rinishidir⁵¹.

Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalariga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Negaki, tarmoqni izchil rivojlantirish, oldinga qo‘yilgan vazifalarga erishish bevosita tarmoqqa malakali mutaxassislarni tayyorlash darajasiga, kadrlar sifatiga bog‘liq. Mamlakatimizda turizm bilan bog‘liq o‘quv yo‘nalishiga ega bo‘lgan qator ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatib turibdi. Shuningdek, «O‘zbekturizm» MK qoshidagi Respublika ilmiy-o‘quv konsalting markazi ham aynan shu masalalar bilan shug‘ullanadi. Kadrlarni o‘qitish gid – ekskursavodlarni, turistik va restoran-mehmonxona biznesi menejerlarini, chet el oshxonasi oshpazlarini tayyorlash, turoperatorlik va mehmonxona faoliyatini

⁵⁰ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B.12.

⁵¹ SH.Mahmudov – O‘zbekturizm MK Buxoro bo`linmasi boshlig`ining O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnaliga bergan intervusidan., 2014-yil, yanvar

tashkil etish bo'yicha doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi kurslarda amalga oshirilmoqda. Tarmoqqa oid maslahatlar berish kurslarida esa milliy mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. AQSh, Fransiya, Germaniya, Turkiya kabi mamlakatlardan taniqli mutaxassislarini taklif etgan holda o'tkazilayotgan seminar-treninglar yaxshi samara bermoqda.

Joriy yilning 21 fevral kuni poytaxtimiz Toshkentda "Turizm: yoshlarning yangi tashabbuslari" mavzusida xalqaro davra suhbatib o'lib o'tdi. Ushbu anjuman "Kelajak ovozi" yoshlar tashabbuslari markazi va "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda⁵².

Davra suhbatida "Kelajak ovozi" yoshlar tashabbuslari markazi faollari bilan birgalikda turizmni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan o'z kasbining ustasi bo'lgan taniqli turistik kompaniyalar rahbarlari, turli vazirlik va mutasaddi tashkilotlar vakillari qamda Fransiya, Rossiya, Yaponiyadan tashrif buyurgan turizm sanoati bo'yicha mutaxassislar o'zaro fikr almashdilar.

Anjuman doirasida belgilangan asosiy tadbirlardan biri "Kelajak-Tur" xalqaro yoshlar turizmi Byurosining taqdimot marosimidir. Ushbu Byuroni tashkil etishda "Kelajak ovozi" yoshlar tashabbuslari markazi faollarining turizmni shakllantirish va uninng rivojlanishida yoshlarning o'rni to'g'risidagi qiziqarli va dolzarb tashabbuslari muhim o'rin tutdi. Shunday qilib, 2007 yilning dekabr oyida "Kelajak-Tur" xalqaro yoshlar turizmi Byurosini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilindi⁵³

Qarshi, Samarqand va Buxoro shaharlarida 100 nafar oshpaz uchun «Restoran va mehmonxona olami: jahonpazandalik san'atining eng yangi tendensiyalar» mavzuida trening o'tkazildi. Treningga mashhur ekspert Xans Drik Xalbfell taklif etildi. Bu kabi kurslar va treninglarni tez-tez o'tkazib turish rejalashtirilgan⁵⁴.

⁵² <http://talaba.zn.uz>

⁵³ <http://uz.denemetr.com>

⁵⁴ O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B.13.

Qator xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risida kelishuvha erishildi. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash GIZ-Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati texnik ko‘magining jalg etilgan mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

«O‘zbekturizm» MK o‘quv markazi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda «Turizmning dolzarb muammolari» ilmiy ishlar yillik to‘plamining chop etilishi ham kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash faoliyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

«O‘zbekturizm» Mk xalqaro aloqalarini kengaytirish sohasida ham bir qator vazifalarni amalga oshirmoqda, jumladan, mamlakatimizning turistik imkoniyatlarini xorijda namoyish etishga bag‘ishlangan tadbirlarga ham e’tibor berilmoqda. Respublikamiz turistik salohiyatning taqdimotlari Ispaniya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Turkiya va Latviya kabi mamlakatlarda doimiy o‘tkazib turiladi. Ko‘rgazma maydonlari va turistik firmalar vakillari yo‘l haqining imtiyozli to‘lanishi davlat tashkilotlari tomonidan ta’milanadi. Ya’ni, O‘zbek turistik kompaniyalari tomonidan turistlarni qabul qilish imkoniyatlari tqdsimotini o‘tkazish uchun bacrah shart-sharoitlar yaratilgan.

2013-yil mobaynida «O‘zbekturizm» MK, «O‘zbekiston havo yo‘llari» MAK, «O‘zbekiston temir yo‘llari» DATK hamda xususiy turistik kompaniyalar vakillaridan iborat mamlakatimiz delegatsiya a’zolarining yuqorida tilga olingan xalqaro turistik ko‘rgazmalarda faol ishtiroki ta’minlandi. Ko‘rgazmalarda O‘zbekiston turistik salohiyatining imkoniyatlari keng namoyish etildi. Ekspozitsiya davri mobaynida vakillarimiz ko‘rgazmalari tashrif buyuruvchilar va ishtirokchilarni O‘zbekistondagi dam olish zonalari, eng yaxshi turistik marshrutlar bilan tanishtirish va respublikamiz haqidagi rang-barang videoroliklarni namoyish etishga muvaffaq bo‘lishdi⁵⁵.

⁵⁵ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B.15.

2013-yil oktabrda bo`lib o`tgan «Buyuk ipak yo`li» 19-Toshkent xalqaro turistik yarmarkasi har tomonlama jozibali bo`ldi. U BMT BTSning ko`magida o`tkazilib, jahonning 20 dan ziyod mamlakatidan tashrif buyurgan turistik firmalar va tashkilotlar vakillarini qamrab oldi. O`zbekistonning turistik ekspoziysiysi shunday tashkil etildiki, xorijlik turoperator va yarmarkaga tashrif buyuruvchilar mamlakatimizning barcha mintaqalari imkoniyatlari haqida to`liq axborotga ega bo`lishdi. Ko`rgazma turistik sanoatning barcha yo`nalishlarini mufassal qamrab oldi va uning o`tkazilishi jarayonida O`zbekiston bilan boshqa mamlakatlar o`rtasida turistik almashuv haqidagi maqsadlar bayonnomalari va shartnomalar imzolandi. Mazkur forum doirasida «Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ekoturizmni rolini oshirish» mavzuidagi xalqaro konferensiya o`tkazish imkonini berdi.

Konferensiyada ekoturizmni rolini oshirishda quyidagi mezonlarga alohida e'tibor beriladi: geotizimlar holati, tabiat komponentlarining holati; tuproq sho`rlanishi, tuproqlarning eroziyaga berilganligi, er usti suvlarining minerallashuvi, o`simlik qoplaming ahvoli (hosildorlik darajasi, foiz)⁵⁶.

Bugungi kunda Toshkent yarmarkasida ishtirok etish uchun hozircha bizning bozorda qatnashmayotgan, lekin ushbu faoliyatni boshlash istagi bo`lgan o`nlab xorijiy turoperatorlarni jalb qilish hisobidan ushbu yarmarkaning samaradorligini oshirish ustida faol ishlar olib borilmoqda.

«O`zbekturizm» MK tomonidan «O`zbekiston havo yo`llari» MAK, «O`zbekiston temir yo`llari» DATK bilan birgalikda respublikamiz xususiy turistik kompaniyalari ko`magida o`tkazilayotgan «Mega-axborot-tur» loyihasining amalga oshirilishi davom etmoqda. Mazkur loyiha xorijiy mamlakatlar turistik kompaniyalari va OAV vakillari uchun mamlakatimiz bo`ylab voqealarga boy bepul tanishtirish saflarini o`zida namoyon etdi. Dasturda jahonning 18 mamlakatidan turistik sanoat va OAVning 171 nafar vakili ishtirok etdi. Bu kabi

⁵⁶ Matyoqubov Umidjon Rahimovich, Ekologik vaziyatni inobtag olib turizm samaradorligini oshirish yo`nalishlari va istiqbollari mavzusidagi Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi avtoreferati – S. B.13. 35 bet.

tadbirlar mamlakatimiz haqidagi axborotni chet elda keng yoyish, O`zbekistonda yanada ko`proq xorijiy sayyohlarni jalb etishga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtida mazkur dasturni yanada takomillashtirish, samaradorligini oshirish yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

2013-yilning muhim xalqaro voqealaridan biri Toshkentda o`tkazilgan ikki tomonlama hamkorlik bo`yicha O`zbekiston – Vengriya, O`zbekiston – Latviya, O`zbekiston – Polsha va O`zbekiston – Turkmaniston komissiyalarining navbatdagi majlislarini alohida ta`kidlash lozim. Majlislar doirasida tomonlar turistik oqim istiqbollari, turistik almashuv hajmini oshirish chora-tadbirlarining tadbiq etilishi masalalarini muhokama qilish barobarida, turizm sohasini rivojlantirishga yo`naltirilgan bir qator idoralararo xalqaro shartnomalarini imzolashdi, xususan, Latviya va Turkmaniston turistik tashkilotlari bilan ana shunday kelishuvlarga erishildi.

Shu bilan birga, 2013-yil noyabr oyining boshida Londonda turizm sohasi uchun ikkita nihoyatda muhim tadbir – BMTning Butunjahon turistik tashkiloti tomonidan tashkil etilgan Vazirlik sammiti va «WTM-2013» xalqaro turistik yarmarkasi bo`lib o`tdi. Sammit ishida jahoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan 40 nafar turizm vazilari ishtirop etdi. Bunda havo transporti, infratuzilmani rivojlantirish, soliqlar va yig`imlar, viza rejimini soddalashtirish masalalari diqqat markazida bo`ldi. Uchrashuv jarayonida «O`zbekturizm» MK tomonidan YUNVTOning Samarqanddagi ofisiga mazkur tashkilotning tarkibiy bo`linmasi maqomini berish masalasini ko`rib chiqish taklif etildi. YUNVTOning moliyaviy imkoniyatlaridan foydalangan holda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash to`g`risidagi kelishuvga erishildi.

Londonda bo`lib o`tgan turistik yarmarkada jahoning ariyb 200 ta mamlakatidan tashrif buyurgan firmalar va kompaniyalar ishtirop etdi. Yarmarkaz mobaynida xorijiy turoperatorlar va ko`plab tadbir ishtiropchilarida o`zbek turistik kompaniyalarning stendlari katta qiziqish uyg`otayotganligi ta`kidlandi.

Respublikamizning turistik salohiyatini ommalashtirish ishlarini amalga oshirish barobarida, «O‘zbekturizm» Mk nafaqat mamlakatimizga qo‘sishma turistik oqimlarni jalg qilish, balki, ushbu sohada xususiy sektorning rivojlanishiga ko‘maklashishga ham intilmoqda. Litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish va turistik faoliyatni amalga oshirish, kichiik biznes sub’yektlarining tadbirkorlik faoliyati uchun qo‘sishma shart-sharoitlarini yaratish maqsadida «O‘zbekturizm» Mk tomonidan «Litsenziyalash tartibini takomillashtirish va turistik faoliyatni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaror loyihasi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. Unga muvofiq, litsenziyalanishi lozim bo‘lgan, turistlarga xususiy tarzda xizmat ko‘rsatuvchi vositalarining soni ortishi, shuningdek, mehmonlarni ro‘yxatga olishning soddalashtirilgan tartibi o‘rnatildi. Mazkur qarorga ko‘ra, turistlarni joylashtiruvchi oilaviy korxonalar hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun mo‘ljallangan mamlakatimiz bo‘ylab xizmat turlarini tashkil etuvchi turoperatorlarning ustav fondi miqdori kamaytiriladi⁵⁷.

Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning ishki va tashqi turizm sohasi rivojlanishi tobora faollashmoqda, bu jihat mahalliy hamda respublikamizda tashrif buyuruvchi xorijlik mehmonlar oqimining doimiy ravishda o‘sib borishidan dalolat beradi.

⁵⁷ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B.16.

3. Qadimgi Zarafshon (Buxoro, Samarqand) va Qashqadaryo vohalari sayyohlik sohasini rivojlantirish imkoniyatlari.

Bugungi kunda O‘zbekiston sayyohlik industriyasini jadal rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo‘lgan, turizm salohiyati yuqori mamlakatlar qatoriga kiradi. Shu bois, xalqaro hamjamiyat mamlakatimizni jahon turizmining yangi markazlaridan biri deb etirof etmoqda. Yurtimizning har bir hududi tarixiy maskanlarga, osori atiqalarga, qadimiylar me’moriy obidalarga boy, xalqimiz madaniyati ming yillar davomida shakllanib, dunyo tamaddunini boyitib kelgan. Ayniqsa, Samarqand O‘zbekistoning sayyohlik salohiyati yuqori viloyatlaridan biri sanaladi. Hududdagi ko‘plab madaniy ob’yektlar 2001-yili YUNESKOning madaniy meroslar ro‘yxatiga kiritilgan⁵⁸. Buyuk ipak yo‘lining qoq markazida joylashgan Rim va Bobil kabi afsonaviy shaharlarga tenglashtirilgan Samarqand necha asrlardan buyon dunyo ahlini diqqat markazida. Samarqandni bir bor ko‘rish inson zakovati bilan yaratilgan mo‘jizalarni tomosha qilushni istovchilar soni yildan-yilga ortmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga, sohaning yangi taraqqiyoti bosqichini boshlanishiga, uni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Ijobiy o‘zgarishlar, ayniqsa, Samarqandda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Dastlabki yillarda shaharda kichik mehmonxonalar qurilib, bir necha sayyohlik firmalari tashkil etilgan bo‘lsa, bugunga kelib sohada ixtisoslashgan firmalar va mehmonxonalar keskin ko‘paydi. Taqqoslash uchun o‘sha vaqtarda viloyatda bor yog‘i 2–3 ta mehmonxona va 3–4

⁵⁸ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B.25.

ta sayyohlik firmalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirda turizm faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan 80 dan ziyod sayyohlik firmalari va 90 ga yaqin mehmonxonalar ishlab turibdi. Qisqacha aytganda, viloyatda har yili o'nlab yangi sayyohlik firmalari tashkil etilib, qator zamonaviy va milliy usuldag'i mehmonxonalar qad rostlamoqda. Mehmonxonalardagi o'rinalar soni hozirga kelib to'rt mingdan oshib ketdi.

O'zbekiston maqtansa arzигуллик boy tarixiy va madaniy o't mishga ega bo'lib, uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni beqiyosdir. Ushbu boy tarix va madaniyatni o'zida aks ettirgan 4000dan ko'proq me'moriy va arxeologik obidalar, Imam al-Buxoriy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Aburayhon Beruniy kabi dunyoga mashhur insonlarning vatani bo'lganligi, qolaversa, jannatmakon tabiat go'shalarininä mavjudligi ko'pchilikda shu o'lkaza tashrif buyurib, uning turistik nuqtai nazardan jozibador joylarida sayohat qilish istagini uyg'otish tabiiy hol⁵⁹.

Davlatimiz tomonidan sohaga berilayotgan e'tibor, amalga oshirilayotgan ustuvor islohotlar samarasi o'laroq, ko'plab yangi ish o'rinalari tashkil etilib, aholi daromadi yuksalmoqda. Misol uchun, 2012-yilda faqatgina Samarqanddagi turistik tashkilotlar tomonidan jami 29,6 mlrd so'mga yaqin turistik xizmatlar va 11,6 mln AQSH dollari miqdoridagi eksport xizmatlari amalga oshirildi. Shu yili viloyatga 100 ming nafarga yaqin chet ellik sayyohlar tashrif buyurdi. Sayyhar sonining yillik o'sish sur'ati esa yiliga 10 – 15 foizni tashkil etmoqda. 2013-yil yakuni bo'yicha viloyatda turistik firma va mehmonxonalar soni 160 taga yetdi.

2011-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Samarqand viloyatida 2011 – 2012-yillarda turizmni rivojlantirish va turistik xizmatlar eksportini ko'paytirish haqida»gi dasturi qabul qilindi. Dasturga ko'ra, viloyatda sayyohlikni rivojlantirishga qaratilgan jami 100 ga yaqin turli tadbirlar belgilandi. Shuningdek, dastur ijrosini bajarish asnosida viloyatda keng ko'lamdag'i qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borilib, soha infratuzilmasi yanada kengaytirildi.

⁵⁹ Ibragimov Nutfillo Salimovich, O'zbekistonda Xalqaro turizmni rivojlantirishda distinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash mavzusidagi iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi avtoreferati – T. – B.12. 30-bet.

Sohada olib borilgan amaliy ishlar natijasida jahon andozalariga mos zamonaviy va milliy uslubda mehmonxonalar barpo etilib, milliy va dunyo xalq taomlarini tayyorlaydigan restoran va choyxonalar qurildi, savdo markazlari, milliy hunarmandchilik buyumlaribidan savdo qiluvchi do'konlar, madaniy hordiq chiqarish maskanlari, valyuta almashtirish shahobchalari tashkil etildi. Hukumatimiz tomonidan berilgan imtiyozlar asosida turistik firmalar chet ellardan 10 dan ziyod turistik klassdagi zamonaviy avtobuslar sotib olishga muvaffaq bo'ldi. Natijada, turistlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar, jumladan, transport xizmatlarining saviyasi oshirilib, xorijlik sayyohlarga o'lcamizning diqqatga sazovor joylarini borib ko'rishlari uchun qulayliklar yaratildi. Dunyoning turli qit'alaridan kelgan sayyohlar Zarafshon vohasining tabiatidan, mo'tadil iqlimdan bahra olib, xalqimizning mehmondo'stligidan benihoya mamnun bo'lishib, bu yerga yana kelish istagida yurtlariga qaytishmoqda.

O'zbekistonda madaniy va tarixiy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta bo`lib, ularning rivojlanishi O'zbekiston xalqaro aloqalarni rivojlantirishga o`z hissasini qo`shadi. Xalqaro aloqalarni rivojlanishi xalqimizni boshqa millatlar bilan yanada yaqinlashtiradi, bu esa o`zaro aloqalarni kuchaytiradi hamda o`zaro hamkorlikning o'sishiga va respublikamizda turizmni rivojlanishiga katta zamin yaratadi⁶⁰.

Viloyatga xorijiy sayyohlarni ko'proq jalb etish, turistik xizmatlarning rang-barangligini kengaytirish maqsadida yangi marshrutlar joriy qilinmoqda. Bugungi kunda mahalliy turistik faollarimiz dunyoning turli mamlakatlarida (London, Berlin, Madrid, Milan, Tokio, Shanxay, Seul, Moskva) tashkil etilayotgan yarmarkalarda faol ishtirok etishmoqda. Dunyoning yetakchi mamlakatlari turoperatorlari bilan o`zaro hamkorlik shartnomalari imzolanib, respublikamizga keluvchi sayyohlar oqimini ko'paytirishga munosib hissalarini qo'shmoqdalar.

⁶⁰ Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev L., Istoriko-demograficheskiye ocherki urbanizatsiya Uzbekistana. -T.: Universitet, 2002.

2013-yilning 8-10-oktabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan 19-xalqaro turizm yarmarkasi viloyatning turistik tashkilotlari, mehmonxonalarini va muzeylari vakillari, mahalliy hunarmandlar va folklor jamoalarini faol qatnashishdi. Ishtirok etgan 50 ga yaqin turistik sub’yektlar tomonida jami 800 dan ziyod manfaatli shartynomalar imzolandi⁶¹.

Hozirda viloyatda turizmnini rivojlantirishning 2014–2015-yillarga mo‘ljallangan maxsus dasturi ishlab chiqilgan. Dasturda viloyatning turizm salohiyatidan yanada kengroq foydalanib turistlar sonini ko‘paytirish, soha infratuizilmasini rivojlantirish, xizmatlar turini kengayitrish va sifatini yanada ko‘tarish, turizmning yangi yo‘nalishlarini joriy qilish, viloyatda ichki turizmnini rivojlantirish, soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, viloyatga tashrif buyurayotgan turistlar sonini oshirish sayyoohlarning Samarqandda bo‘lish davrini uzaytirish hamda O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2013-yil 17-apreldagi qarori⁶² ijrosini ta’minlash maqsadida viloyatda sayyoohlilikning ekologik, tibbiy-sog‘lomlashtirish, sport, agro va geoturizm kabi turlariga kemh e’tibor qaratilmoqda. Ushbu xizmat turlarini ustuvor rivojlantirishning zonalari etib viloyatning Urgut tumani Qoratepa hududida Taxtaqoracha dovoni yo‘lining atrofi va «Ming archa» dam olish maskani, Samarqand tumanining Ohalik va Mironko‘l qishloqlari hududi, Nurobod tumanining Oqsoy qishlog‘idagi «Hazrat Dovud» ziyyoratgohi va Nurbuloq qishlog‘idagi «Nurbuloq» sanatoriysi atrofi, Jomboy tumanidagi «Zarafshon» qo‘riqxonasi hamda Paxtachi tumanidagi «Dobusiya» qal’asi atrofi belgilandi.

Yuqorida ta’kidlangan qaror talablarga asosan, viloyatning sayyoohlilik marshrutlari bo‘ylab turizm infratuizilmasini kengaytirish, qishloq turizmi salohiyatini yanada oshirish maqsadida viloyat Arxetektura va qurilish bosh boshqarmasi va Yer resurlari va davkat kadastri boshqarmasi bilan birgalikda

⁶¹ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B.26.

⁶² Karimov I.A. 2013-yil 17-apreldagi «2013–2016-yillarda qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori

tumanlarning qishloq turistik yo‘nalishlarida yo‘l bo‘yidagi infratuzilma va xizmat ko‘rsatish sohasi ob’yektlarini qurish uchun muhandislik kommunikatsiyalari mavjud bo‘lgan yer uchastkalarini aniqlash ishlari olib borilmoqda.

Turizm sohasi uchun oliy va o‘rtal darajadagi mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti hamda Sartepa turizm va maishiy xizmat kasb-hunar kollejlarida tahsil olayotgan talabalarning ishlab chiqarish amaliyotlarini o‘tashga va ishga joylashtirishda viloyatdagi turistik firma va mehmonxonalar bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan⁶³.

Sohada faoliyat ko‘rsatayotgan hodimlarning malakasini oshirib borish va ularni qayta o‘qitish yuzasidan «O‘zbekturizm»⁶⁴ milliy kompaniyasi Respublika o‘quv konsalting markazi muntazam o‘quv mashg‘ulotlari va seminar-treninglar o‘tkazmoqda. Shu bilan birga, Respublika o‘quv konsalting markazi viloyat Muzeylar boshqarmasi hamkorligida tashkil etilgan «Gitlar tayyorlash markazi» ham samarali faoliyat yuritmoqda.

«O‘zbekturizm» Milliy Kompaniyasidan tashqari respublikada bir qator xususiy turistik agentliklar mavjud.

Xozirgi kunda O‘zbekistonda 400 dan ortiq xususiy turistik firmalar foaliyat ko‘rsatib kelmoqda, ulardan 290 poytaxtda, 200 dan ortig`i - barcha viloyatlarda asoslanmoqda. Mehmononalarning 120 tasi Toshkent shahrida, respublikaning hududlarida esa 88 tasi joylashgan⁶⁵.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mamlaktimizdagи turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan yirik ta’lim muassasa hisoblanadi. Mazkur ilm maskanida malakali professor o‘qituvchilar talabalarga turizm sohasiga doir fanlar bo‘yicha ta’lim bermoqdalar. Kafedlarda o‘qitiladigan fanlarning soni 30 dan ortiq bo‘lib, shundan 24 tasi bevosita turizm mutaxassisligiga oid. Mazkur fanlarni

⁶³ O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B. 25.

⁶⁴ «O‘zbekturizm Milliy Kompaniyasi 1992 yil 27 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimov I. A. № PF-447-sonli «O‘zbekturizm» Milliy Kompaniyasining tuzilishi to‘g‘risida» gi Farmoni bilan tashkil etilgan.

⁶⁵ <http://www.uzbektourism.uz>

o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan o‘quv-uslubiy majmualar ishlab chiqilgan bo‘lib, mashg‘ulotlar maxsus jihozlangan auditoriyalarda olib borilmoqda.

Respublika Oliy va o‘rta ta’lim maxsus ta’lim vazirligining bevosita yordam natijasida kadrlar tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi ham yildan yilga o‘zgarmoqda. Bu o‘zgarishlar turizm sohasining zamonaviy talablarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, sifatli turistik ta’lim dasturini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Masalan, mazkur institut 2010 – 2011-yildan boshlab, Turizm va mehmonxona xo‘jaligi servisi, Marketing, Menejment, Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda⁶⁶.

Institut professor-o‘qituvchilari ushbu ta’lim yo‘nalishlari uchun zamon talablariga asosan yangi DTS va tegishli mutaxassislik fanlarini qayta ko‘rib chiqishdi, bunda bosh mezon turistik ta’limning sifatiga qaratilib, fanlarni o‘zgartirishda ketma-ketlik, uzviylikka va uzlusizlik tamoyillariga rioya qilindi. Ushbu mezonlar asosida institutning «Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrasida 2010 – 2011 o‘quv yilidan boshlab turizm sohasi bo‘yicha ilmy tadqiqot ishlari olib borish va ta’lim jarayoni uzlusizligini ta’minlash maqsadida magistratura mutaxassisligi ochildi.

Xulosa qilib aytganda, dunyo tamadduni beshiklaridan bo‘lmish qadim va navqiron Samarqand turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar, sohaga qaratilayotgan e’tibor tufayli yanada jozibador qiyofa kasb etmoqda. Bunday ijobiy o‘zgarishlar yaqin kelajakda jahon turizm markazlaridan biriga aylanishda muhim omil bo‘ladi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

O`zbekiston juda katta turistik potentsialiga ega. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham turizmnning markazlaridan biri hisoblanadi. turistlarni jalb etuvchi qadimdan Xitoy va Evropa mamlakatlarni

⁶⁶ O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi – Toshkent.: 1/2014, B.27.

bog`lab turuvchi Buyuk Ipak yoli o`tgan katta miqdordagi me`moriy haykallar va tarixiy davrga ega bo`lgan shaharlardan: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrисабз, Qoqon, Termizdir. O`zbekistonning qadimgi shaharlarda zamonaviy me`morchilik O`zbekiston uchun o`zigacha hususiyatga ega bo`lgan o`tgan asrlar milliy binokorlikning xaykallari bilan bog`liqdir.

«... yurtingiz ko`hna madaniyat va sivilizatsiya chorrahasida joylashgan. Qadimiy shaharlaringiz va qadriyatalaringiz ko`xna tarixingiz haqida so`zlab turibdi. O`zbek xalqi samimiyligi va mehmondo`stdir. Mamlakatingiz ana shu boy madaniyati, urf-odatlari va an`analarini kelajak avlodga bekamu-ko`s yetkazib berishga alohida e'tibor qaratayotgani, bu yo`lda muhim chora-tadbirlarini amalga oshirayotgani muhimdir.⁶⁷»

Jahonga o`zining qadimiy yodgorliklari bilan tanilgan Buxoroning turistik salohiyati nihoyatda yuqori. Bu zaminda turizmni yanada rivojlantirish, uning infratuzilmasini takomillashtirish uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Ayni paytda viloyatda sayyoohlarni yuqori saviyada kutib oladigan 70 ga yaqin mehmonxona faoliyat ko`rsatmoqda, aeroportning yangi terminali foydalanishga topshirildi, turistik markazlarga eltuvchi yo`llar rekonstruksiya qilinib, madaniy va tarixiy ob`yektlarda ta'mirlash ishlari jadal olib borilmoqda. Bir so`z bilan aytganda shaharning iftixori sanaluvchi aksariyat tarixiy obidalarning to`liq bir ansambl tarzida ekanligi xorijiy va mahalliy turistlarni doimo o`ziga jalb etib kelmoqda.

Kelayotgan sayyoohlar sonining o`sib borishi, ularning Buxoroga qiziqishi natijasida shahrimizda qadimiy hunarmandchilik, noyob kasblar qayta tiklandi. Viloyatimizda faoliyat ko`rsatayotgan 1000 dan ortiq hunarmandlarning qo`llari bilan yaratilayotgan mahsulotlar butun dunyo bo`ylab xalqimizning boy tarixini targ`ib qilmoqda. Natijada ko`plab hunarmandlar avlodlarimizning unutilib ketayotgan kasblari va asriy an`analarini davom ettirish bilan birga bundan yaxshigina daromad ham olmoqdalar.

⁶⁷ YUNESKOning O`zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Krista Pikkat. Turizm sohasida yetuk kadrlarni tayyorlash/O`zbekiston Iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil. B.30.

Mustaqillikdan ilgari Buxoroga ayrim xorijiy mamlakatlardan sayyoohlar tashrif buyurib, ularning aksariyati sotsialistik mamlakatlardan edi. Bugun kunda Buxoroga butun dunyo mamlakatlaridan sayyoohlar tashrif buyurishmokda. Jumladan, Yaponiya, Frantsiya, Germaniya, Avstriya, Angliya, Xitoy, Malayziya, Indoneziya, AQSH, Janubiy Amerika xatto, Avstraliya va Afrikadagi ko`plab mamlakatlardan sayyoohlar tashrif buyurmoqdalar.

1991 yilgacha o`zbek xonadoni, tarixi, madaniyati haqida butunlay tushunchaga ega bo`limgan sayyoohlar bugungi kunda yurtimizning uziga xos, ming yillik tarixi, madaniyati tugrisida tasavvurga ega bulib, milliy bayramlarimiz va to`y-marosimlarimizda ishtirok etib, xalqimiz azaliy urf-odatlarining butun dunyoga yoyilishiga hissa qo`shmoqdalar. Bunda har yili o`tkazilayotgan “Ipak va ziravorlar” festivali, “Palov sayli” singari madaniy tadbirlar alohida o`rin egallaydi. O`z navbatida viloyatimiz fuqarolari ham dunyo kezib, xorijiy mamlakatlar bilan do`stona aloqalarni tobora kengaytirmoqdalar⁶⁸.

Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishning ishga solinishi lozim bo`lgan katta imkoniyatlari mavjud bo`lib, turizmning biznes, konferensiya, madaniy-bilish, ekologik, cho`l, ekstremal, tibbiy, folklor-etnokrafik turizmi singari ko`plab turlarini taklif qilish shart-sharoitlari ham mavjud. Hududdagi reaksiyon resurslar turistlarni yil mobaynida qabul qilish imkonini bersa-da, xalqaro turizm mavsumi nisbatan qisqa muddat davom etadi. Mavjud imkoniyatlardan to`liq foydalanish uchun esa, turzim sektoriga ko`plab malakali kadrlar tayyorlash, sohani yetuk xodimlar bilan muntazam ta`minlab borish talab etiladi.

Viloyatda ichki turizmni riojlantirishga ham katta ahamiyat berilmoqda, chunki ko`pchilik odamlarda yurtimiz tarixini aks ettiruvchi tarixiy obidalar, shuningdek respublikamiz mustaqillikka erishgandan so`ng barpo etilgan inshootlarni ko`rish, ulardan zavqlanish imkoniyati bo`limgan. SHuni hisobga

⁶⁸ O`zbekturizm MK Buxoro bo`linmasi boshlig`i SH.Mahmudovning O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnaliga taqdim etgan ma'lumoti. 2014-yil yanvar.

olib, jonajon respublikamizning Toshkent, Samarqand, Xiva, SHahrisabz va Buxoro shaharlarini o`z ichiga olgan sayyohlik yo`nalishlari tayyorlandi. Buxoro viloyatida joylashgan 7 pir qadamjolariga respublikamiz va viloyatimiz aholisini ziyyoratga olib kelish bo`yicha alohida yo`nalishlar ishlab chiqildi⁶⁹.

So`nggi yillarda Buxoro viloyatida xalqaro va mahalliy turizm oqimining barqaror ravishda oshib borayotganligi kuzatilmogda. 2013-2014 yillar uchun statistik ma`lumotlarga murojaat qiladigan bo`lsak, sohada faoliyat yuritayotgan tashkilotlar soni ko`pligi nutqai nazaridan etakchilikni Tunash uchun boshpanalar egallaydi. Tunash uchun boshpanalarning hissasi sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarning 79 %ini tashkil etadi.

Buxoro viloyatida turizm, mehmonorchilik va sog`lomlashadirish tashkilotlarining soni⁷⁰

	2011	2012	2013
Turizm va turoperatorlik tashkilotlari soni	13	17	14
Tunash uchun boshpanalar soni	59	74	70
Sanatoriyl-kurort tashkilotlarining soni	6	5	3
Dam olishni tashkil etuvchi korxonalar soni	2	2	2


Buxoro viloyatida mazkur sohada olinadigan jami daromadning 58 %i Tunash uchun boshpanalarga to`g`ri keladi. Sohada olingan jami daromadlar hisobga olinganda, turistlarga suvenir sotishdan olingan daromad va turistlarga ko`rsatilgan qo`shimcha pulli xizmat ko`rsatish kabilardan olingan daromad - Boshqa

⁶⁹ O`zbekturizm MK Buxoro bo`linmasi boshlig`I SH.Mahmudovning O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnaliga taqdim etgan ma`lumoti. 2014-yil yanvar.

⁷⁰ Buxoro viloyat statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tuzildi.

daromadlar qatoriga kiritilgan.

1-rasm⁷¹




Buxoro viloyatida ushbu sohada foydalanilayotgan jami o`rnlarning 89 %i Mehmonxonalar va shu kabi tunash boshpanalarga to`g`ri keladi. Turizm va turoperatorlik tashkilotlari turistlarni joylashtirish uchun o`z o`rinlariga ega emas deb hisoblanadi.

Buxoro viloyatida turizm, mehmondorchilik va sog`lomlashtirish sohasida 2010, 2011 va 2012 yillarda xizmat ko`rsatilgan jami mijozlarning 61%i Tunash boshpanalariga to`g`ri kelsa, 32 %i Turizm va turoperatorlik tashkilotlariga to`g`ri keladi. 4,5 %i Sanatoriylar hissasiga to`g`ri kelsa, 0,5%igina Dam olish

⁷¹ Buxoro viloyatida Turizm, mehmondorchilik va sog`lomlashtirish sohasida 2013 yilda olingan jami daromadlarda tashkilot turlarining hissasi. Buxoro viloyat statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tuzildi.

xizmatlarini tashkil etish korxonalariga to`g`ri keladi. YA`ni, har bir turdag'i tashkilotlarda xizmat ko`rsatilgan mijozlarning hissasi boshqa turdag'i tashkilotlarda xizmat ko`rsatilgan mijozlarning hissasiga qaraganda bir necha barobar farq qiladi.



2-rasm⁷².

Buxoro viloyatida turizm, mehmondorchilik va sog`lomlashtirish sohasida foydalanimayotgan har bir o`ringa to`g`ri keluvchi mijozlarning soni nuqtai nazaridan etakchilik Tunash uchun bospanalar egalladi. Chunki, Viloyatga keluvchi aksariyat turistlar mehmonxonalarda o`rtacha 3-4 kun yashab turadilar, sanatoriylarda esa mijozlar 1-2 haftalab yashaydilar. Dam olish uylarida mijozlar undan ham ko`proq vaqt yashab turishlari mumkin. Dam olish uylaridagi barcha xonalar bir vaqtning o`zida to`liq band bo`lmasligi paytida, bahor va kuz mavsumlarida mehmonxonalarda bo`sh o`rinlarning o`zi qolmaydi. Shunday bo`lsada, sanatoriy-kurort tashkilotlarida har bir o`rin bo`yicha xizmat ko`rsatilgan mijozlarning o`rtacha soni mehmonxona o`rinlarida xizmat ko`rsatilgan mijozlarning o`rtacha sonidan ko`p ham ortda qolmaydigan darajaga etib keldi.

⁷² Buxoro viloyatida turizm, mehmondorchilik va sog`lomlashtirish sohasidagi bevosita ish bilan ta`minlanganlar soni, yillar bo`yicha.

Buxoro viloyat statistika boshqarmasi ma`lumotlari asosida tuzildi.

Bunga sanatoriyyda keyingi yillarda amalga oshirilgan ta`mirlash ishlari tufayli o`rinlarning shinamlik darajasi yaxshilanishi asos yaratib berdi⁷³.

O`zbekiston ko`plab tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolarga boy o`lka. Mamlakatimizning turistik salohiyati yuqori bo`lib, sohani rivojlantirish shaxsan Yurtboshimiz tashabbusi, qolaversa, sohada amalga oshirilayotgan sa`y-harakatlar natijasida tobora takomillashmoqda. Shu bois, hukumatimiz tomonidan turizm sohasiga mamlakatimiz iqtisodiyotining istiqbolli yo`nalishlari sifatida alohida e`tibor berilmoqda. Dunyo tamaddunining beshiklaridan biri bo`lgan Qadim Turon zamini, bu yerda shakllangan va bizga ajdodlardan beba ho meros bo`lib qolgan madaniyat bugun dunyo sayyohlarining diqqatini tobora o`ziga jalb qilmoqda. Yurtimizning ana shunday jozibador hududlaridan biri, shubhasiz, Qashqadaryo vohasi hisoblanadi.

Hududi 28,4 ming kavdrat kilometrdan iborat yoki mamlakat uumiy yer maydonining 6,23 foizini tashkil etadigan Zarafshon va Amudaryo oralig`ida joylashgan, qadimgi janubiy So`g`d janubiy Turon deb nomlangan, dehqonchilik va chorvachilik uchun nihaytada qulay iqlim hamda suv sharoitiga, o`ziga xos go`zal tabiatiga ega bo`lgan bu voha qadimdayoq dunyo ahlining e`tiborini o`ziga tortib kelgan.

Qashqadaryo viloyati tabiat rang-barang, osmono`par tog`lari, jannatmakon bog`lari, dala-yu dashtlari, qiru adirlari, eng muhimi, mehmondo`s st va tanti insonlari bilan mashhur voha. 2700 yildan ko`proq tarixga ega qadimiy va hamisha navqiron Qarshi o`tmishda «Ilm-adab qubbasi» deb nom olgan, buyuk jahongir Amir Temur kamol topgan Shahrisabz takrorlanmas tabiatini bilan har bir kishida o`zgacha taassurot qoldirgan va hozir ham ta`rifu tashbehda beqiyos, turfa hayvonot va nabotot olamiga boy Hisor qo`riqxonasi, moziy izlari saqlanib qolgan Kitob «Geologik qo`riqxonasi» joylashgan muqaddas zamin.

⁷³ Ro`ziev Sobirjon Samatovich. Buxoro viloyatidagi turizm, mehmonorchilik va sog`lomlashtirish bozori tahlili.

Yer shari harakatini muntazam kuzatib turadigan dunyoning beshta kenglik stansiyalaridan biri Ulug‘bek observatoriysi joy olgan Kitob, ulkan energetika giganti Talimarjon issiqlik elektr stansiya qurilgan Nishon, Amudaryo suvini 132 metr balandlikka ko‘tarib dalalarga oqizuvchi noyob nasos stansiyalari, sero‘t yaylovlari bilan mashhur Mirishkor, mamlakatning neft-gaz o‘chog‘i Muborak, Yerqo‘rg‘onobidalarini bag‘rida asrab kelayotgan Koson, 20 ga yaqin xorijiy davlatlarga o‘z mahsulotlarini eksport qilayotgan Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi ishlab turgan G‘uzor, kishini o‘ziga maftun etuvchi, g‘aroyib qir-adirlari bisyor Qamashi, kulollari yasagan mahsulotlarining dong‘i chet ellarga tarqagan Kasbi... xullas, sanab adog‘iga yetmaysiz⁷⁴.

Viloyatda 894 ta madaniy meros ob‘yektlari, shundan 820 ta yodgorlik va 37 ta me’yoriy ansambl ro‘yxatga olingan bo‘lib, 216 tasi respublika va 678 tasi mahalliy ahamiyatga molik ob‘yektlar hisoblanadi. XII – XVIII asrlarga oid tarixiy yodgorliklar, eramizdan oldingi IX – VIII asrlarda mavjud bo‘lgan «Yerqo‘rg‘on» shaharchasi qoldoqlari va sharq bozorlari kabi tarixiy hamda me’moriy obidalar mavjud bo‘lib, o‘tgan yillar davomida ularning aksariyati qayta ta’mirlandi va hozirgi kunda chet ellik va mahalliy sayyoohlarga o‘zining jozibadorligi bilan xizmat ko‘rsatmoqda.

Misol uchun, birgina Qarshi shahrining o‘zida chet el va mahalliy sayyoohlar e’tiboriga havola etilmayotgan 10 ga yaqin turistik ob‘yekt mavjud. Jumladan, «Ko‘k Gumbaz» masjidi (XVI asr), «Odina» majmuasi (XIV asr), «Xo‘ja Jarroh» maqbarasi (XIV asr), «Sardoba» suv saqlash inshooti (XVI asr), Qashqadaryo ko‘prigi (XVI asr), o‘rta asrlarda hammomi (XVI asr), «Bekmir» madrasasi (XX asr), «Qilichbek» madrasasi (XX asr boshi), «Abdulaziz» madrasasi (XX asr boshi).

Qadimda Kesh nomi bilan yetti iqlimga mashhur bo‘lgan Shahrisabz shahridagi «Oq saroy» majmuasi (XIV asr), «Dorusaodat» va «Dorutilovat»

⁷⁴ O`ktam Xo`jayorov. Betakror Qashqadaryoning turizm istiqbollari // O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil. B.35

majmualari (XIV asr), «Chubin» madrasasi (XVI asr), «Koba» kavonsaroyi (XV asr) va boshqa obidalardan ziyoratchilarning qadami uzilmaydi.

Bundan tashqari, sayyohlar Qarshi shahriga tashrif buyurar ekanlar shahar tashqarisida joylashgan, ob'yektlarni ham ko'zdan kechirish istagini bildirashadi. Jumladan Kasbi tumanidagi «Sulton Mir Haydar» maqbarasi (XII asr), «Sardoba» suv saqlash inshooti (XVI asr), «Namozgoh» masjidi, G'uzor tumanidagi «Tohir va Zuhra» majmuasi, Kitob tumanidagi «Hazrati Beshir», «Xo'ja Imkon» maqbarasi, Koson tumanidagi «Hazrati Qusam ota» maqbarasi (X asr), «Yerqo'rg'on» shaharchasi qoldiqlari (eramizdan avvalgi IX asr) singari diqqatga sazovor joylarni mammuniyat bilan tomosha qiladilar.

Mavjud bebahoh boyliklarimiz viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, viloyatimizga tashrif buyurayotgan mehmonlarni munosib kutib olish, ularning maroqli hordiq chiqarishlari, xalqimizning shonli o'tmishi va bugungi taraqqiyoti bilan yaqindan tanishishlari uchun turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada, ko'rsatilayotgan turistik va mehmonxona xizmatlarining sifat ko'rsatkichi mutassil o'sib bormoqda. Masalan, bu ko'rsatkich 2004-yilda 124,2 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2010-yilga kelib 1,611 mln so'mni tashkil etadi. 2012-yilda esa bu ko'rsatkich 2,986 mln so'mga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, o'tgan yili yanvar-noyabr oylarida sayohatchilarga pulli xizmat ko'rsatishda xizmatlar hajmi 3,646 mln so'mni tashkil qilgan. Bu vaqt mobaynida jami 33807 kishiga turistik xizmat ko'rsatildi, ularning 1985 nafari chet ellik sayohatchilardir. Shuningdek, mahalliy aholi vakillari turistik xizmatlardan tobora ko'proq bahramand bo'layotganini ham qayd etish joiz. Xususan, 2013-yilning yanvar-noyabr oylarida 31819 nafar mahalliy aholiga sayyohlik va mehmonxona xizmatlari ko'rsatildi. Umuman shu

vaqt davomida xorijlik sayyoohlarga 162,6 ming AQSH dollari miqdorida eksport xizmatlari ko'rsatildi⁷⁵.

Qisqacha aytganda, qadim Qashqadaryo vohasi ham mamlakatimix turizm salohiyatini dunyoga namoyon etishdek sharaflı ishda o‘zining munosib va muhim o‘ringa ega. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, viloyatda mazkur sohani rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilishi tabiiy va maqsadga muvofiq. Zero, mazkur sohaning istiqboli yuksak ekani, turzimning taraqqiy etishi viloyat iqtisodiyotining yuksalishida, aholi farovonligi oshishida muhim ahamiyatga egaligini soha mutasaddilari chuqr anglaydilar.

4. Buxoro Turizmining istiqbollari: Turizm sohasida yetuk kadrlar tayyorlash – taraqqiyot omili

So‘nggi yillarda Buxoro viloyatida xalqaro va mahalliy turizm oqimining barqaror ravishda oshib borayotganligi kuzatilmoxda. 2013-yil oxiriga kelib, xorijlik sayyoohlarni soni 100 ming nafarni tashkil etadi. Ushbu

⁷⁵ O`ktam Xo`jayorov. Betakror Qashqadaryoning turizm istiqbollari // O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil. B.35

ko‘rsatkichlarga sanatoriy-kurort tashkilotlari hamda dam olishni tashkil etuvchi boshqa korxonalardagi, shuningdek, turizm sektori tomonidan bilvosita yaratilgan ish o‘rinlari ham kiritilsa, turizmning viloyatda ish bilan bandlik ko‘rsatkichlariga qo‘shayotgan salmoqli hissasi namoyon bo‘ladi. Buxoro Davlat Universiteti oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham mana shu ish o‘rinlari uchun malakali kadrlarni o‘z vaqtida yetkazib berishdan iborat.

Buxoro viloyatida turizm sohasi uchun kadrlar Buxoro Davlat Universiteti va Buxoro Turizm kollejida tayyorlanadi. Buxoro davlat universitetida turizmga ixtisoslashgan «(turizm va mehmonxona xo‘jaligi)» bakalavriat ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lib, mazkur ta’lim yo‘nalishini 2012-yilda ilk bakalavrular bitirib chiqishdi. 2010–2011-yilidan «Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqrish», 2013–2014-o‘quv yilidan boshlab esa «Turizm» va «Xizmatlar sohasi» bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari hamda «Turoperatorlik faoliyatini tashkil etish» magistratura mutaxassisliklariga talabalar qabuli amalga oshirilyapti. Ayni paytga kelib esa, 45 nafar talaba ushbu yo‘nalishlarni tugatgan, shuningdek, 149 nafar talaba ta’lim olmoqda. 2017-yilga borib, BuxDU tomonidan sohaga yetkazib beriladigan kadrlar soni 200 nafardan oshirilishi rejalashtirilmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarga Buxoro turizm kollejini har yili bitirib chiqayotgan 150 dan ortiq mutaxassisni ham qo‘shganda, sohani malakali kadrlar bilan ta’minalash borasida ijobjiy natijalarga erishiliyotgani kuzatiladi⁷⁶.

Buxoro Davlat Universitetida turizm sohasi ta’limi «Iqtisodiy ta’lim va turtizm» kafedrasи huzurida ochildi. Ayni paytda turizm yo‘nalishida dars beruvchi o‘n nafar professor-o‘qituvchi, shu jumladan, bir nafar fan doktori, besh nafar fan nomzodi talaba yoshlarga sohaning nozik jihatlarini dunyo tajribalarini qo‘llagan holda mukammal tarzda o‘rgatmoqdalar. O‘qituvchilar sakkiz nafari Yevropa va Osiyoning universitetlarida malaka oshirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish muddatlarini o‘tab qaytishdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi

⁷⁶ Zokir Tadjixodjayev, Abror Jo‘rayev, Halim Hamroyev. Turizm sohasiga yetuk kadrlar tayyorlash//O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil. B.29.

qarorida belgilangan vazifalardga mos ravishda talabalarga to‘rtta fan ingliz tilida o‘tila boshlandi, sohaga oid xorijiy adabiyotlar ba’zasi yaratildi. Kafedra huzurida eng so‘nggi rusumdagи texnik jihozlar bilan o‘quv-metodik markaz tashkil etilgan. Dars jarayonlarida talabalar elektron doska, videoproyektorlar, ovoz berish tizimidan samarali foydalanishib, universitet qoshida ochilgan markazlar va kurslarda ingliz , fransuz, nemis, koreys, ispan, italyan, yapon tillarini o‘rganish imkoniyatiga ham egalar.

Talabalarning amaliyot ishlarini tashkil etishda «O‘zbekturizm» MKning hududiy boshqarmasi bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatalgan. Boshqarma tomonidan talabalar viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan mehmonxonalar va boshqa turistik korxonalarga amaliyot o‘tashlari uchun yuborilmoqda.

Mustaqillik davriga kelib O‘zbekistonda turizmga, shuningdek soha kadrlarini tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (1999 yil 2 iyul’) qarori asosida Toshkent iqtisodiyot Universitetida xalqaro turizm fakul’teti, Toshkent, Samarqand va Buxoroda turizm kollejlari ochildi. Vazirlar Mahkamasining “Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori (2004 y. 26 mart) bilan faoliyatini qayta qurgan oliy o‘quv yurtida ham turizm fakul’teti ish boshladi. SHuningdek, mamlakatdagи boshqa ba‘zi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ham turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlanadi. Xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasiga qarashli Respublika ilmiy-konsalting o‘quv markazi amalga oshiradi. 2005 yilda markaz tomonidan 51 gid, 201 gid-tarjimon, 90 turistik operator tayyorlandi. 140 mutaxassisiga malaka oshirish o‘quv mashg`ulotlari, 190 xodimga seminar-trening uyushtirildi⁷⁷.

Bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar va ishlarning barchasi O‘zbekistonda turizmnинг keng avj olishi uchun yordam beradi

⁷⁷ Tojiyeva M. Turizm iqtisodiyoti. B. 2013-y. B-25

Zamonaviy turizm industriyasini rivojlanishida internet tizimining o'mi beqiyos. Talabalar va professor-o'qituvchilar viloyat turizm korxonalarida internet texnologiyalaridan foydalanish borasida maslahat-konsalting xizmatlari ko'rsatib kelishmoqda. Viloyatning turizm salohiyatini yanada kengroq namoyish qilish maqsadida talabalar tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda «Other Bukhara», «Bukhara – Open your fairyland» kabi nomlar ostida sahifalar yuritilmoxda. Ayni paytda bir guruh talaba va professor-o'qituvchilar «O'zbekturizm» MK hududiy boshqarmasi hamkorligida Buxoro turizm industryasining o'ziga xos tomonlarini namoyish qilish, soha kadrlari malakasini oshirish, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda bronlashtirish va ma'lumot berish, biznes g'oyalarini amalga oshirishda yordam berish kabi xizmatlarni o'zida mujassam etuvchi yangi veb-sayt yaratish borasida ishlar olib borishmoqda. «Buxoro viloyatida 2013 – 2016-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish kompleks chora-tadbirlar dasturi» doirasida Buxoro turizm kolleji bilan Turkiya va Avstriyaning yetakchi turizm kollejlari o'rtaida hamkorlik o'rnatilishida amaliy yordam ko'rsatildi.

Jumladan, universitetda Vazirlar Mahkamsi tomonidan tasdiqlangan «2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroridan kelib chiqib, unda qayd etilgan vazifalarni bajarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar, fokllor ijrochiligi, qadimiy qo'lyozmalar borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. «Asrlar sadosi» hamda «Ipak va ziravorlar festevali»da hunarmandchilik naunalari bilan ishtirok etib kelinmoqda. Iqtidorli talabalardan iborat guruh tomonidan Buxoro viloyatida mavjud bo'lgan moddiy va nomoddiy meros namunalari to'g'risidagi ma'lumotlar nashrga tayyorланмоқда.

«Iqtisodiy ta'lif va turizm» kafedrasida xalqaro aloqalar namunali tarzda tashkil etilgan bo'lib, Santyago de Kompostela universiteti, Ispaniyaning Valensiya politexnika universiteti, Belgiyaning Bryussel erkin universiteti, Finlandiyaning Rovaniyemi universiteti, Gretsianing Saloniki texnologik ta'lif

universiteti kabi ko‘plab yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan ilmiy tadqiqotlar olib borish borasida hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘yilgan. Yevropa Komissiyasining TEMPUS hamda ERASMUS MUNDUS dasturlari doirasida yuqoridagi universitetlarda 2010 – 2013-yillar mobaynida 15 ga yaqin talaba o‘qib qaytishdi, o‘ndan ortiq tadqiqotchi, sakkiz nafar professor-o‘qituvchi ilmiy izlanishlar olib bordi. Iqtidorli talabalardan olti nafari BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan tashkil etilgan tanlovlarda muntazam ravishda ishtirok etib, g‘oliblar safidan o‘rin olib kelishmoqda. Ikki nafar talaba turizm yo‘nalishida ilmiy izlanishlar natijasi sifatida Navoiy nomidagi davlat stipendiyalari sovrindori bo‘lishdi, bir nafar professor-o‘qituvchi «O‘zbekiston belgisi» davlat nishoniga sazovor bo‘ldi.

Mamlakatimizda turizm va servis sohasining tobora taraqqiy topib borayotganligi «Iqtisodiy ta’lim va turizm» kafedrasи oldiga bir qator dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Bunda ilm-fanning ishlab chiqarish sohasi bilan o‘zaro manfaatli va innovatsiyalarga tayanadigan samarali aloqalarini yo‘lga qo‘yishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qiyidagilar belgilab olingan:

- hududdagi turizm sohasi vakillari, oliy ta’lim muassasalari, litsey va kollej professor-o‘qituvchilari hamda talabalari, ilmiy tadqiqotchilar, mutaxassislar o‘z ishlanmalari, ilmiy maqolalari va takliflari bilan ishtirok eta oladigan interaktiv loyihalarni amalga oshirish;
- turizm va servis sohasi ehtiylolaridan kelib chiqqan holda malakali, yuqori bilimli va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada yaxshilash;
- moddiy va nomoddiy merosni asrab-avaylash, turizm potensialidan oqilona foydalanish, turizm rivojining iqtisodiyotiga, jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotiga hamda atrof-muhitga ta’sirini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- turizm ta’limi sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

· mahalliy vakolatli organlarga turizm sohasida qarorlar qabul qilishda ekspertlik yordamini ko‘rsatish, mahalliy turizm korxonlari uchun ilmiy tadqiqot ba’zasi sifatida konsalting xizmatlari hamda mavjud kadrlar malakasini oshirish imkoniyatlarini taklif qilish⁷⁸.

Bir so‘z bilan aytganda, jahon sayyohlik sohasidagi jadal rivojlanish jarayonlari Buxoro viloyatida ham kuzatilmoqda. Shu bois universitet o‘qituvchi va murabbiylar oldida mazkur sohaga yetuk, bilimdon va malakali kadrlar yetkazib berish kabi yuksak vazifa turibdi. Universitet jamoasi ana shu ezgu maqsadni chuqur his etib mehnat qilmoqda.

Xulosa

Bozor munosabatlarga o`tish davrida respublikada ro`y berayotgan chuqr siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar milliy iqtisodiyotning muhim va istiqbolli sohalaridan biri bo`lgan turizm faoliyatida ham o`z ifodasini topmoqda.

O`zbekiston xalqaro turizmni rivojlantirishda o`zining salohiyatiga va yuqori raqobatbardoshlikni ta`minlashda nisbiy ustunliklarga ega bo`lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov: “O`zbekiston sayr-u sayohatni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlarga egadir. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi o`zbek shaharlari butun dunyoga mashhur. Respublika hududida to`rt mingdan ko`proq me`morchilik yodgorliklari bor... Tabiat-iqlim sharoitlari qishin-

⁷⁸ Zokir Tadjixodjayev, Abror Jo`rayev, Halim Hamroyev. Turizm sohasiga yetuk kadrlar tayyorlash//O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil. B.29.

yozin sayohatchilarni qabul qilish imkoniyatini beradi⁷⁹ - deb ta`kidlab o`tgan edilar. Turizmning asosini noyob tabiiy shart-sharoitlar, qadimdan O`rta Osiyoda yashab o`tgan xalqlarning uyg`onish davridan boshlab madaniy va etnik merosni tashkil qiluvchi ko`p sonli tarixiy-arxetektura yodgorliklari, kurortlar, dam olish uylari, sayr-sayohat ob`ektlari, milliy park va qo`riqxonalarning zamonaviy shaxobchalari tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda respublikada turizmning hozirgi davridagi rivojlanish darajasi uning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatini bermayapti.

Xalqaro va “O`zbekturizm” Milliy Kompaniyasi ekspertlarining baholashicha bugungi kunda mamlakatimiz turistik salohiyatining 12-15 foizidan foydalanilmoqda, xolos.

Yuqoridagilarni nazarda tutib, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov turizm sohasini rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri ekanligini alohida ta`kidlab, “Turizm sodda qilib aytganda dunyoni tushunib, dunyoni anglash, shu bilan birga dunyo sahniga chiqish demakdir... Toshkent, Samarcand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarimizning 2500-3000 yillik tarixi bor. Bu juda katta ma`naviy boylik. Uni sayyohlikni rivojlantirish yo`li bilan moddiy boylikka aylantirish mumkin”⁸⁰. Rivojlangan mamlakatlarda turizmdan olinadigan valyuta tushumlari butun eksport hajmining 10-35% ni tashkil qiladi. Turizm sohasi uchun jadal rivojlanish xos bo`lib, qator mamlakatlarda yillik o`sish sur`atlari yuqoriligi (24% gacha) bilan tavsiflanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining so`nggi yillarda turizmga oid e`lon qilingan farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro turistik bozorga integratsiyalashish, O`zbekistonning madaniy-tarixiy va ma`naviy merosini jahon hamjamiyatiga targ`ib qilish hamda sayyohlarga xizmat ko`rsatish sifatini jahon andozalari darajasiga etkazishga qaratilgan tadbirlarni o`z ichiga oladi. Bu qonuniy

⁷⁹ I.A.Karimov O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T.1.-T.: O`zbekiston, 1996, B.252.

⁸⁰ I.A.Karimov Bunyodkorlik yo`lida. T.4.-T.: O`zbekiston, 1996. B.282-283.

hujjatlar Respublikada turizm sohasi va uning infratuzilmasini rivojlantirish bo`yicha ko`pgina tadbirlar bilan birga qator muammolar echimlarini ham ko`zda tutadi. Turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishni ta`minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishda davlatning rolini oshirish, turizm rivojlanishning jahon amaliyotida jamlangan ilg`or tajribasini, usullari va vositalarini milliy iqtisodiyotimizga joriy qilish shular jumlasidandir.

Hozirgi davrda respublikamizda milliy turizmning barqaror rivojlanish muammolarini hal qilishning nazariy, uslubiy va amaliy yondashuvlarini ishlab chiqish, turistik mahsulotlar bozorini shakllantirish, mazkur soha faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy usullari va uni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini, turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro turizm insonlarning o`lkalar bilan tanishish, zavqlanish dam olish, bo`sh vaqtini samarali o`tkazish, sog`lig`ini tiklash, dunyo, sport musobaqalarida qatnashish, ma`naviy dunyosini boyitish kabi ishlarga ehtiyojining ortib borishi, boshqa xalqlarning urf-odati va turmush tarzini bilish uchun intilishida alohida o`rin egallaydi.

Shuni ta`kidlashimiz joizki, o`tmishga nazar soladigan bo`lsak, insoniyat har doim makonda o`zining harakat doirasini o`zgartirib, yangi-yangi yerkarni kashf qilgan, turmush-tarzini boyitgan va ijtimoiy munosabatlarning yanada rivojlanishi, takomillashishi uchun intilgan. Bu esa shaxsni shakllanishi va kamol topishiga ijobiy ta`sir ko`rsatib, bunda turizm, ayniqsa uning xalqaro yo`nalishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lgan. Xalqaro turizm juda ko`p qirrali bo`lib, uning tarkibiy qismlari bo`lgan mehmonxona, ovqatlanish, transport, savdo, dam olish va sayr qilish joylari va boshqa ko`plab sohalar, jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog`lanadi va harakatga keladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro turizmning roli va ahamiyati yildan-yilga ortib borib, u jahondagi eng ko`p daromad keltiradigan asosiy sohalardan biriga aylanib bormoqda.

So`nggi yillarda globallashuv va xalqaro integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi turizm rivojlanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda. XX asrning so`nggi choragida jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yuz bergen tub o`zgarishlar natijasida mamlakatlar o`rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar sezilarli darajada faollahdi. Jahonning turli mamlakatlarida iqtisodiy taraqqiyotning yuksalishi kishilarning turli maqsadlarda bir mamlakatdan ikkinchisiga qatnab turish ko`laming kengayishini taqozo etadi. Bu esa turizmni milliy iqtisodiyotining eng istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylantirmoqda.

Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) ma`lumotlariga ko`ra bugungi kunda jahon yalpi milliy maxsulotining 11 foizi, investitsiyalarni 10 foizi, jahon iste`mol xarajatlarining 11 foizi, soliq tushumlarining 5 foizi turizm sohasi hissasiga to`g`ri keladi.⁸¹ XX asr 90-yillarining boshlaridan hozirgi kunga qadar mazkur sohaga kiritilgan investitsiyalarni o`rtacha yillik o`sish sur`ati 30 foizni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda har 16 ish o`rnidan biri turizm tarmog`i zimmasiga to`g`ri keladi. Jhon eksportida turizm neft' va neft' mahsulotlari hamda avtomobillar eksportidan so`ng uchinchi o`rinni egallaydi.⁸²

Turizm taraqqiyoti uchun qilinadigan sarf-xarajatlar boshqa sohalarga qilinadigan sarf-xarajatlarga qaraganda o`zini tezroq oqlaydi. SHu bilan birga turizm iqtisodiyotning o`ziga xos va muhim tarmog`i yoki daromad manbaigina emas, balki mamlakatlar orasidagi tashqi siyosiy aloqalarni har tomonlama rivoj toptirish, do`stona munosabatlarni yaxshilash, turli mamlakatlar va xalqlar madaniyati, san`ati, an`anaviy urf-odatlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

⁸¹ Пузакова Е.П. Международный туристический бизнес. М. издательство «ПРИОР», 2001,стр.3
⁸² Балабанов И.Т. , Балабанов А.И. Экономика туризма. М. Финансы и статистика,2000, стр.3.

Butun jahonda tez sur`atlar bilan rivoj topayotgan turizm yaqin kelajakda ko`rsatiladigan xizmat sohalari orasida eng oldingi o`ringa chiqib olishi mumkin. Hozirning o`zida jahon miqyosida shunday mamlakatlar borki, ular asosan turizmni rivojlantirish hisobiga yashaydi, ravnaq topadi, boyiydi. Ayrim mamlakatlarda turizm rivojlanishidan tushadigan daromad mamlakat milliy daromadining deyarli yarmini tashkil etadi. Turizmdan tushgan daromad evaziga Andorra, Lixtenshteyn, Monako, San-Marino singari mitti davlatlar o`zini zarur noz-ne`matlar bilan ta`minlabgina qolmay, balki boylik orttirmoqda. Bunday mamlakatlarda turizm iqtisodiyot negizi hisoblanib, milliy daromadning 20 foizidan 50 foizigacha beradi.

Xalqaro turizmni rivojlantirish borasida Avstriya, Germaniya, SHvetsariya, Skandinaviya mamlakatlari katta tajribaga ega. Keyingi yillarda bu muhim sohada Xitoy, Malayziya, Isroil, Turkiya kabi mamlakatlar ham ulkan ishlarni amalga oshirmoqda.

O`zbekiston turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish uchun qator imkoniyatlarga egaki, o`zining qulay geografik o`rni, jannatnamo tabiiy sharoiti tufayli jahon madaniyatida o`ziga xos o`rin egallaydi hamda noyob me`morchilik yodgorliklari bilan qator mamlakatlar bilan bellasha oladi. SHirindan-shirin ho`l mevalari, qovun-tarvuzlari, xilma-xil o`ziga xos milliy taomlari va nihoyat go`zal an`analari, urf-odatlar, ochiq yuz va mehmondo`st xalqi bilan butun dunyo ahlining e`tiborini o`ziga tortadi.

O`zbekistonda xalqaro turizm rivoji haqida Osiyo bo`yicha jahon turizmi tashkilotining mintaqaviy vakili Xarish Varmanning quydagi so`zlarini eslatib o`tish o`rinlidir. “Toshkent va umuman O`zbekiston, -deydi u,- menda katta taassurot qoldirdi. O`zbekiston va uning qadimiy shaharlari turizmni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega ekanligi ko`zga tashlanadi. Xalqning boy madaniyati, ko`p asrlik tarixi, arxeologik ob`ektlar, arxitektura yodgorliklari,

jozibali tabiat va eng muhimi-iliq, do`stona mehmonnavoz muhiti kishini lol qoldiradi. Bularning bari- sayyoohlarning bu yoqqa kelishi uchun yaxshi asos”.⁸³

Global iqtisodiy inqiroz ta`sirini yumshatishga qaratilgan choralarni amalga oshirish jarayonida mehmonxonalarda servis sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlarining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilish natijasida bir qator xulosalarga keldim va quyidagi tavsiyalarni ishab chiqdim.

1. Turistlarga ko`rsatiladigan kompleks xizmatlar tizimida mehmonxona xizmatlari markaziy o`rinda turadi va u har bir turning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo mehmonxona xizmatlari sifati va samaradorligi masalasi mamlakatimiz olimlari tomonidan kam o`rganilgan va mos ravishda iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilgan soha bo`lib qolmoqda.

2. Birgina Buxoro viloyatida 100 dan ortiq mehmonxonalar mavjud bo`lib, bir vaqtning o`zida 3 mingdan ortiq mehmonlarni qabul qilish quvvatiga ega. Bunday holat ushbu sohani ilmiy jihatdan tadqiq qilib, uning samaradorligini oshirish va mehmonlarga ko`rsatiladigan xizmatlarning sifatini ko`tarish bo`yicha tegishli tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo qiladi.

3. Mehmonxonalarda servis sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ularning o`zgarishiga ta`sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimi ishlab chiqildi va ularning ta`sirini aniqlash orqali turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish usullari ko`rsatib berildi. Mehmonxona xo`jaligi samaradorligining o`zgarishiga mehmonxonalarning sig`imi, yuklanish darajasi, harajatlar summasi, xorijiy va mahalliy turistlarning oqimi, ko`rsatiladigan xizmatlar soni, mehmonxonaning daromadliligi, mutaxasislarning malakasi kabi omillar ta`siri aniqlandi va uni oshirishning ichki imkoniyatlari ochib berildi.

4. Mehmonxonalarda servis sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini baholash uchun bir qancha ko`rsatkichlar hamda ularni aniqlash yo`llari tavsiya etildi. Bular tarkibiga mehmonxona daromadlari, xarajatlari,

⁸³ Axmedov E. “O`zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda”, T..Abu Ali ibn Sino, 2002-yil, B.85-86.

rentabellikning bir qancha ko`rsatkichlari, sifat ko`rsatkich-lari tizimi kiritildi. Ularni aniqlash usullari ham ko`rsatib berildi.

5. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar islohot uchun emas, balki insonlarning munosib yashashini ta`minlashga qaratilganligi tufayli, mehmonxona xizmatlari sifatini yaxshilashda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy nuqtai nazardan qarash lozimligi ham asoslandi.

6. Turistlarning tashrif buyurish davomiyligining tahlili shuni ko`rsatdiki, mehmonxonalarga joylashgan mijozlarning asosiy qismi 1-3 (87,7%) va 4-7 kunni (9,64%) tashkil qiladi va mehmonxona xizmatlaridan foydalanadi. Mazkur holat qisqa muddatli safar davomida turistlarga ko`rsatiladigan xizmatlar sifatining yuqori bo`lishini talab qiladi. Bu xizmatlarning tezkorligini, xizmat ko`rsatuvchi personalning madaniyatli va xushmuomalaligini, xizmatlarning bekami-ko`stligini, xilma-xillagini ta`minlashni talab qiladi.

Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi, fikrimizcha, respublikamizda, xususan Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan mehmonxonalarda servis sifati va samaradorligini oshirish bo`yicha tegishli tadbirlar ishlab chiqish uchun asos bo`ladi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish . T.: “O`zbekiston”, 2010.
2. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo`nalishlari. -T.: O`zbekiston, 1993.
3. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T.1.-T.: O`zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lida. T.4.-T.: O`zbekiston, 1996.
5. Karimov I. A. 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag ‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzasi. «Xalq so ‘zi» gazetasi, 2010-yil 29-yanvar.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. – T.: «O`zbekiston», 2010.

7. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz tarqqiyotini yuksaltirish, xaqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident I.Karimovning 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O`zbekistonni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi // “Xalq so`zi” gazetasi. 2011 yil 21 yanvar, 2-b.
8. Karimov I. A. 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O`zbekistonni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi // “Xalq so`zi” gazetasi. 2012 yil 20 yanvar, 2-b.
9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi // ”Xalq so`zi”, 2012 yil, 20 yanvar.
10. Karimov I.A. 2013-yil 17-apreldagi «2013–2016-yillarda qishloq joylarida xizmat ko`rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori
11. Karimov I. A.ning 1992 yil 27 iyulda № PF-447-sonli «O`zbekturizm» Milliy Kompaniyasining tuzilishi to‘g‘risida» gi Farmoni
12. Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.- Toshkent, 2002.
13. Alisher Navoiy - “Farhod va Shirin” dostoni.
14. Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R., Saliyev L., Istoriko-demograficheskiye ocherki urbanizatsiya Uzbekistana. -T.: Universitet, 2002.
15. Buxoro viloyat statistika boshqarmasi ma`lumotlari
16. Ibragimov Nutfillo Salimovich, O`zbekistonda Xalqaro turizmni rivojlantirishda distinatsion menejment konsepsiyasini qo`llash mavzusidagi iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi avtoreferati – T.

17. Mahmudov. SH – O`zbekturizm MK Buxoro bo`linmasi boshlig`ining ma’zuzasi ., 2014-yil yanvar
18. Mamatqulov X.M. Turizm va servisga oid izohli lug`at. Samarqand: SamISI, 2010.
19. Matyoqubov Umidjon Rahimovich, Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo`nalishlari va istiqbollari mavzusidagi Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi avtoreferati – S.2011.
20. O`ktam Xo`jazorov. Betakror Qashqadaryoning turizm istiqbollari // O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil.
21. O`lmasov A., Vaxobov A. V. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. Toshkent, "SHarq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2006.
22. O`zbek tilining izohli lug`ati. J. 2 E-M.
23. O`zbekturizm Milliy kompaniyasining Buxoro mintaqaviy boshqarmasning rasmiy axboroti, 2014 yil yanvar.
24. Ro`ziev S.S. Buxoro viloyatidagi turizm, mehmondorchilik va sog`lomlashtirish bozori tahlili.
25. Tojiyeva M. “Iqtisodiy turizm” Ma’ruzalar matni, Uslubiy qo‘llanma. T.:2010-yil
26. Zokir Tadjixodjayev, Abror Jo`rayev, Halim Hamroyev. Turizm sohasiga yetuk kadrlar tayyorlash//O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil.
27. Балабанов И.Т. , Балабанов А.И. Экономика туризма. М. Финансы и статистика,2000.
28. Основные показатели развития туризма и отдыха в Республике Узбекистан в 2007 году. Статистический бюллетень. Т.: Госкомстат, 2008.

29. Папиран Г.А. Менеджмент в индустрии гостепримства (отели и рестораны).
М.: ОАО НПО: Изд-во “Экономика”, 2000., Уокер Дж. Введение в
гостепримство: Учебник / пер. с англ. М.: ЮНИТИ, 1999., Основы
управления предприятиями и организациями индустрии гостепримства /
Под ред. А.Браймера. – М., 1994.
30. Пузакова Е.П. Международный туристический бизнес. М. издательство
«ПРИОР», 2001.
31. Социально-экономическое развитие Республики Узбекистан по итогам 2009
года. Статистические сборник. Ташкент, ГосКомСтат. 2010.

<http://talaba.zn.uz>

<http://uz.denemetr.com>

<http://www.uzbektourism.uz>

www.UzReport.uz